

U/1-1X

51-70

Let's

O'qituvchi nimani o'yaydi?



O'qituvchining puliga hamma oshiq. Hokim va uning muovinlari, MIB xodimlari, soliqchilar, sug'urtachilar... Shirinmikan shunchalik o'qituvchining puli! Hatto direktorning o'zi ham o'qituvchining maoshiga sherik. Maktabning ta'miri, gullab-yashnashi, keladigan tekshiruvchilarni mehmon qilish kabi xarajatlar muallimning chiqimisiz amalga oshmaydi.

4-bet

O'qituvchining saviyasidan nega qoniqmayapmiz?

Bugun o'qituvchilarimiz faoliyatidagi **asosiy** kamchiliklardan biri — bu kasbiy kompetentlilikning yetishmasligi.

7-bet

Kuch – bilim va tafakkurda

Ma'rifat

1931-yildan chiqsa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2019-yil 3-iyul, chorshanba № 51 (9220)

Xalq ziyolilari gazetası

Yunusobod — Chilonzor — Yashnobod

Yoxud abituriyentlarga davlat xizmatlari qanday ko'rsatilmoqda?

900 mingdan ortiq abituriyent hamon so'roq ostida turgan tillar kesimidagi kvotalar va fanlar majmuasi tasdiqlanishini kutmoqda.



10-bet




Prezident maktabi imtihon savollari DTS asosida tuzilganmi?

3-bet

Inson kapitalini rivojlantirish

“aqli ta'lif” va “aqli tibbiyot”ga bog'liq



Innovatsion rivojlanishda “Sog'lomlashadiragan aqli ta'lif” modeli

Qobiliyat va hissiy zakovat(IQ, EQ)ni rivojlantiradigan va innovatsiyalarga o'rgatadigan uzluksiz ta'lif

Maktabgacha ta'limga qobiliyat (IQ) sohasini aniqlash.

11 yillik umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lif qobiliyati (IQ) sohasini aniqlash, qobiliyatlarini doimiy rivojlantirib borish. Oliy ta'limga tegishli yo'naliishlariga tavsiya berish.

Kasb-hunar ta'llimida 6 oy — 2 yil innovatsiyalarni ishlashishga o'rgatish, “Us-toz-shogird” tizimini qo'llash.

Bakalavriatda xorijiy innovatsiyalarni ishlashishga o'qitish, magistratura xorijiy innovatsiyani modernizatsiyalash va tatbiq etish.

Doktorantura-(PhD, DSc)da yangi ilmiy g'oyalar va innovatsiyalar yaratish, eksportini yo'nga qo'yish.

8-9-betlar



Ishonchingni oqlaymiz, Vatan!

Mamlakatimizda yoshlarga qaratilayotgan e'tibor va g'amxo'rlik tufayli noyob iqtidor va qobiliyat egalari yuzaga chiqib, ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchiga aylanmoqda.

Xususan, so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlar islohotlar, qonunchilik sohasidagi yangilanishlar yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. Ayniqsa, 2016-yil 14-sentabrda qabul qilingan yangi tahrirdagi “Yoshlarga oid davlat siyosoti to'g'risida”gi qonun yoshlarning huquq va erkinliklarini ta'minlash hamda amalga oshirishda mustahkam huquqiy asos bo'lib xizmat qilayotir.

2017-yildan buyon yurtimizda 30-iyuning Yoshlar kuni sifatida keng nishonlanayotgani ham davlatimiz rahbarining ertangi kun vorislariiga qaratilgan yuksak ishonch va e'tiboridan darak beradi. Mazkur sana munosabati bilan 28—30-iyun kunlari respublikamizning barcha hududidagi madaniyat va istirohat bog'larini hamda xiyobonlarda “Yoshlar sayllari” bo'lib o'tdi. Shuningdek, ommaviy sport tadbirlari, festival va davra suhbatlari, “Youth Day” shiori ostida 5 km. ga yugurish marafoni o'tkazildi. Asosiy bayram tadbirini muhtasham “Humo” muz sporti arenasida tashkil etildi. Unda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlarga atalgan bayram tabrigi o'qib eshittirildi.

5-bet

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
Qarori**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI HUZURIDAGI INTELLEKTUAL MULK
AGENTLIGI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA**

Mamlakatimizda intellektual mulk sohasida, shu jumladan, mazkur sohada davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish bo'yicha islohotlar izchil amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-fevraldag'i "Intellectual mulk sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4168-sont qaroriga muvofiq intellektual mulkni huquqiy muhofaza qilish va umume'tirof etilgan xalqaro normalarni implementatsiya qilishga oid faoliyatni qoniqarsiz deb topilganligi sababli Intellektual mulk agentligi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimiga o'tkazildi.

Mamlakatimizda intellektual mulk sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlarni davom ettirish, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish maqsadida, shuningdek, 2017—2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlanirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni hisobga olib:

1. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi (keyingi o'rinnlarda — Agentlik) ijro etuvchi apparatining boshqaruvi xodimlari cheklangan soni 61 shtat birligidan iborat yangilangan tuzilmasi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

O'zbekiston Respublikasi adliya vaziriga xodimlarning belgilangan cheklangan soni doirasida Agentlikning ijro etuvchi apparati tuzilmasiga o'zgartirishlar kiritish, shuningdek, zarur hollarda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi (keyingi o'rinnlarda — Adliya vazirligi) va Agentlikning budgetdan tashqari mablag'lari hisobidan qo'shimcha shataf birliklarini joriy etish huquqi berilish;

2. Quyidagilar Agentlikning asosiy vazifalari etib belgilansin:

intellektual mulk sohasida yagona davlat siyosatining amalga oshirilishini ta'minlash, ixtirolar, foydalı modellar, sanoat munasublari, tovar belgilarli va boshqa intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish;

intellektual mulk sohasidagi huquqni qo'llash amaliyotini izchil va bir xilda ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

intellektual mulk masalalari bo'yicha xalqaro-huquqiy hamkorlikni, shu jumladan, intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni o'zaro muhofaza qilish haqidagi xalqaro shartnomalarni tuzish orqali yo'lga qo'yish va mustahkamash;

intellektual mulk sohasidagi ilmiy-tadqiqot va boshqa ishlarni o'tkazishda ishtirok etish;

jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish va intellektual mulkka nisbatan hurmat hissini shakkantirish.

3. Belgilab qo'yilsinki:

a) Agentlik:

intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni muhofaza va himoya qilish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi vakolatlari davlat boshqaruvi organi;

O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligining shartnomalari va majburiyatlari bo'yicha huquqiy vorisi hisoblanadi;

b) Agentlik faoliyatiga umumiylar rahbarlik va uni nazorat qilish, moddiy-teknika bazasini mustahkamash va Agentlik xodimlarning malakasini oshirishni tashkil etish Adliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi;

v) O'zbekiston Respublikasining norezidentlari — yuridik va jismoniy shaxslardan kelib tushgan patent bojlarini va to'lovlarning 20 foizi miqdoridagi mablag'lari, O'zbekiston Respublikasining rezidentlari — yuridik va jismoniy shaxslardan kelib tushgan patent bojlarini va to'lovlarning 80 foizi miqdoridagi mablag'lari, elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar va ma'lumatlar bazalarini ro'yxatdan o'tkazish uchun amalga oshirilgan to'lovlari, intellektual mulk sohasidagi ma'muriy huquqbuzarlik uchun qo'llaniladigan ma'muriy jarima summalarini, qonunchilikka muvofiq pullik xizmatlar ko'rsatishdan tushgan mablag'lari Agentlikning budgetdan tashqari jamg'armasiga belgilangan tartibda o'tkaziladi;

g) Agentlikning budgetdan tashqari jamg'armasiga mablag'lari Agentlik tomonidan tasdiqlanadigan va qonun-

chilikda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkaziladigan xarajatlar smetasini va shtatlar jadvaliga asosan Agentlikni saqlab turishga, uning moddiy-teknika bazasini shakllantirish va mustahkamashga, Agentlik xodimlarning mehnatiga haq to'lash, moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy himoya qilishga hamda qonun hujjaligiga muvofiq boshqa maqsadlarga yo'naltiriladi.

4. Adliya vazirligi:

a) bir oy muddatda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan birlgilashda Agentlikning budgetdan tashqari jamg'armasi mablag'lardan foydalanish tartibini hamda O'zbekiston Respublikasining rezidentlari va norezidentlari bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarning patent bojlarini va to'lovlardan o'matilgan tartibda tushadigan mablag'larni yo'naltirish tartibini belgilashni nazarda tutuvchi hukumat qarorli loyishini Vazirlar Mahkamasiga kiritsin;

b) ikki hafta muddatda:

mazkur qaroring 3-bandli "v" kichik bandida ko'rsatilgan mablag'lari kelib tushishining alohida hisobini yuritish uchun tegishli bank va g'azna shaxsisi hisobvaraqlari o'chilishini;

Agentlikning g'azna shaxsisi hisobvaraqsida qoldiq mablag'lari Agentlikning budgetdan tashqari jamg'armasi shaxsisi hisobvaraqsida o'tkazilishini ta'minlasin;

v) ikki oy muddatda Agentlik xodimlarning belgilangan tartibda attestatsiyadan o'tkazish orqali Agentlikning intellektual mulk sohasida chuquq bilimlarga hamda amaliy ish tajribasiga ega halol, tartib-intizomli va malakali kadrlar bilan to'ldirilishini ta'minlasin.

5. Agentlik faoliyatini moliyalashtirishning asosiy manbalari etib O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti mablag'lari, qonunchilikda o'matilgan tartibda shakllantiriladigan Adliya vazirligi va Agentlikning budgetdan tashqari mablag'lari hamda qonun hujjalarda taqilqanmagan boshqa mablag'lar belgilansin.

6. Agentlikka quyidagi huquqlar berilsin:

davlat organlari, korxonalar, muassasalar va boshqa tashkilotlar faoliyatida intellektual mulk sohasidagi qonunchilik talablariga riyo etilishi bo'yicha o'rganishlar o'tkazish;

davlat organlari, korxonalar, muassasalar va boshqa tashkilotlar rahbarraliga aniqlangan qonunbuzilishlar, ularga imkon beruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish haqida ko'rib chiqilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar o'tkazish;

intellektual mulk sohasidagi qonun hujjalari buzilishiha yo'l qo'ymaslik haqida mansabdar shaxslarni yozma ravishda ogohlantirish;

intellektual mulk sohasidagi qonun hujjalarni buzgalilik uchun davlat organlari, korxonalar, muassasalar va boshqa tashkilotlar mansabdar shaxslariga nisbatan ma'muriy jazo qo'llash;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini bilan kelishilgan holda malakali xorijiy mutaxassislarini ularga istisno tariqasida Agentlikning budgetdan tashqari mablag'lari hisobidan xorijiy valyutada ish haqi va boshqa to'lovlarini belgilagan holda xodimlar va maslahatchilar sifatida jabol qilish.

7. Adliya vazirligining hududiy bo'linmalariga quyidagi qo'shimcha vazifalar yuklatilsin:

korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilishni ta'minlash bo'yicha konsultativ va amaliy ko'maklashish;

intellektual mulk obyektlarining huquqiy muhofaza qilinishini, mualliflarning va boshqa huquq egalarining huquqlari muhofaza qilinishini ta'minlash bo'yicha, shu jumladan, kontrafant mahsulotlarni ishlab chiqarish, chiqarish, realizatsiya qilishga qarshi kurashishda vakolatlari davlat organlariga ko'maklashish orqali tegishli choralar ko'rish;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarning intellektual mulk sohasini tartibga solishdagi faoliyatida huquqni qo'llash amaliyotini izchil va bir xilda ta'minlash;

aholi o'rtaida intellektual mulk muhofazasi sohasida huquqiy madaniyatni oshirish bo'yicha targ'ibot tadbirlarini tashkilashtirish va o'tkazish.

8. Adliya vazirligining quyidagi takliflariga rozilik berilsin:

"Intellektual mulk sohasida kadrlarni qayta tayyorlash

va ularning malakasini oshirish o'quv markazi" davlat unitar korxonasini "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi qoshidagi Intellektual mulk konsultativ markazi" davlat unitar korxonasi etib qayta nomlash;

2019/2020-o'quv yiliдан boshlab Toshkent davlat yuridik universitetida "Intellektual mulk huquqi" mutaxassisligi bo'yicha yangi magistratura yo'nalishini oshish va unga bazaviy oliy ma'lumotdan qat'i nazar intellektual mulk sohasidagi mutaxassislarini tayyorlash vazifasini yuklash;

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuristlar malakasini oshirish markaziga intellektual mulk sohasidagi kadrlarning malakasini, shu jumladan, pullik asosda oshirish bo'yicha qo'shimcha vazifa yuklash.

9. Belgilab qo'yilsinki:

a) Adliya vazirligi huzurida O'zbekiston Respublikasi adliya vaziri rais hisoblanadigan intellektual mulk obyektlarining huquqiy muhofazasi bilan bog'liq bo'lgan apellyatsiyalarni sudgacha ko'rib chiquvchi Apellyatsiya kengashi tashkil etiladi;

Apellyatsiya kengashi tarkibiga intellektual mulk sohasidagi mustaqil olimlar va mutaxassislar kiradi;

Apellyatsiya kengashining tarkibida Adliya vazirligi va Agentlik xodimlari soni Apellyatsiya kengashi a'zolari umumiy sonining o'ttzifidan oshmasligi lozim;

b) quyidagi mezonlarga muvofiq keluvchi tovar belgisi va xizmat ko'rsatish belgisi (keyingi o'rinnlarda — tovar belgisi) O'zbekiston Respublikasida hammaga ma'lum deb e'tirof etiladi:

tovar belgisi qo'llaniladigan tovarlar va (yoki) xizmatlarning turi O'zbekiston Respublikasining amalidagi va (yoki) potensial iste'molchilari tomonidan yoxud tovar belgisi qo'llaniladigan tovarlar va (yoki) xizmatlarning turi uni tarqatilishini ta'minlashda ishtirok etayotgan shaxslar tomonidan yoxud tovar belgisi qo'llaniladigan tovarlar va (yoki) xizmatlarning turiga aqolador bo'lgan ishbilarmonlar doirasasi tomonidan tanib olimishi, bunda tovarning sifat darajasi haqida tushuncha mamlakatdagi tovar belgisi bilan bog'liq bo'lishi kerak;

avvaldan xos bo'lgan yoki faol foydalanish natijasida vujudga kelgan yugor farqlanish xususiyati;

O'zbekiston Respublikasi hududida, shu jumladan, Internet tarmog'ining milliy segmenti domen nomlari tizimida tovar belgisidan keng foydalanish va uning reklama qilinishi;

respublikada uzoq muddat davomida va faol foydalanish natijasida vujudga kelgan tijorat qiymati;

v) Apellyatsiya kengashi tomonidan qaror qabul qilishda yuqoridaq mezonlar bilan biq qatorda mazkur qarorda aks etmagan ushbu sohadagi xalqaro standartlar, shu jumladan, Butunjahon intellektual mulk tashkilotining hujjaligiga muvofiq qo'shimcha mezonlar inobatga olinishi mumkin.

10. Agentlik Toshkent shahri, Mustaqillik shoh ko'chasi, 59-uya beg' araz foydalanish huquqi asosida joylashtirilish;

11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini ikki hafta muddatda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi to'g'risidagi nizomni tasdiqlasin;

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ayrim qarorlariga 2-ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kritingil;

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga 3-ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kritingil;

14. Adliya vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralor bilan birlgilakda ikki oy muddatda qonun hujjaligiga mazkur qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritisin.

15. Mazkur qaroring ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N.Aripov zimmasisiga yukslansin.

**O'zbekiston
Respublikasi
Prezidenti**

Sh.MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2019-yil 1-iyul

Prezident maktabi imtihon savollari DTS asosida tuzilganmi?

Joriy yilning 29-iyun — 3-iyul kunlari Namangan, Nukus, Xiva va Toshkent shaharlarida mamlakatimizda iqtidorli yoshlarni o'qitish tizimini yaratish hamda kelgusida ularda rahbarlik va yetakchilik ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan Prezident maktablariga kirish imtihonlarining saralash bosqichi bo'lib o'tdi.



Poytaxtimizdagi "O'zko'rgazmasavdo" majmuasida ham Toshkent shahrida Prezident maktabiga saralash imtihonlari o'tkazildi.

Nomzodlar matematika fanidan imtihonda ishtirot etdi. Savollar Britaniyadagi Kembrij universitetining Cambridge Assessment International Education brendi ostida faoliyat yurutuvchi Imtihon kengashi tomonidan tayyorlangan. Nomzodlarga turli murakkablikdagi 30 ta masalani yechish uchun 90 daqqaqqa ajratildi. Buyuk britaniyalik mutaxassislar imtihondagi barcha jarayonni nazorat qilib bordi. Imtihondan so'ng javoblar tekshirish uchun Angliyaga yuborildi.

Jarayonning ochiqligini ta'minlash maqsadida sinovlar o'tdagidan joylarda nomzodlarning ota-onalari va yaqinlari uchun kuzatuv monitorlarida onlays translyatsiya tashkil etildi.

Imtihongi kuzatuvchi sifatida jalb etilgan jurnalistlar va ko'ngilli ota-onalar jarayon shaffof va adolatli o'tganini ta'kidlashdi.

Ammo ayrim savollar ham tug'ildi. Masalan, Xalq ta'limi vazirligi mutaxassislarining ta'kidlashicha, imtihon savolları britaniyalik mutaxassislar tomonidan tuzilgan. U holda savollar mamlakatimiz DTS talablari va amaldagi o'quv dasturi bilan hamohangmi?

Ma'lum bo'lishicha, imtihon topshiriqlari Yevropa standartlari asosida tuzilgan. Shunday ekan, nomzoddan maktabda berilmagan bilimlarni talab qilish mantiqan to'g'rimi?

Shu kabi savollarga Xalq ta'limi vazirligining axborot xizmati rahbari Anvar Umarovdan javob oldik.

— Imtihon savollarini garchi Yevropa standartlari asosida tuzilgan bo'lsa-da, o'quvchilarimizga notanish emas. Asosiy e'tibor o'g'il-qizlarning maktabda egallagan bilimini hayotda qo'llay olish kompetensiyalarini aniqlashga qaratilgan.

hisoblagich va boshqa taqiqlangan vositalar bo'lsa, olib kelib topshirishlarini so'rashyapti. Agar talabgor o'quvchi ongli ravishda foydalanish uchun shu kabi taqiqlangan vositalarni olib kirgan bo'lsa, o'z ixtiyorib lan topshirishiga ishonish mumkinmi?

— To'g'ri, bolalarning yoshi, ruhiy olamini hisobga olib, ularning erkin harakatlanishiha yo'l qo'yilgan. Ammo bu kim nimani xohlasa, shuni qila oladi, degani emas. Ya'n o'quvchi shuncha ogoh-lantiruvga qaramay, talabga bo'ysunmasa, imtihondan chetlatiladi. Imtihon o'tayotgan auditoriya kuzatuv kameralari bilan jihozlangan. Ishtirokchilarining xatti-harakati kuzatuvchilar nazoratida. Kim shubhali harakat qilsa, darhol aniqlanadi va o'sha zahotiyoy imtihondan chetlatiladi.

— Saralash imtihonlaridan talabgorini chetlatish holati ham bo'ldimi?

— Bunday ko'ngilsizlik deyarli bo'lmadi. Faqat bir o'quvchi telefonidan foydalanishga uringan uchun chetlatildi. Shuningdek, shubha ostiga olingani uchun ayrim o'quvchilarning hujjatlari qayta tekshiruvga yuborildi.

— Saralash imtihoniga kimlar kuzatuvchi sifatida jalb etilgan?

— Toshkent shahridagi imtihonlarda Xalq ta'limi vazirligi va poytaxt maktabalaridan tanlab olingan malakali mutaxassislar kuzatuvchilik qildi.

Ilk saralash imtihonlaridan so'ng ijtimoiy tarmoqlarda o'quvchilar test

— Nomzodning o'rniغا uning aksasi yoki singlisining kirish ehtimoli ham hisobga olinganmi?

— Albatta, jarayonda barcha jihat hisobga olingan. Jumladan, ishtirokchilar orasida shunday holatning oldini olish uchun kuzatuv kameralaridan foydalaniyapti. Har bir nomzod yana bir bor tekshirilmoxda.

— E'tibor bersak, nomzodlar imtihon zaliga ortiqcha tekshiruvlar-siz kiritilmoqda. Faqat ichkarida kuzatuvchilar kimda telefon, elektron

Xalq ta'limi vazirligi mutaxassislarining ta'kidlashicha, imtihon savollari britaniyalik mutaxassislar tomonidan tuzilgan. U holda savollar mamlakatimiz DTS talablari va amaldagi o'quv dasturi bilan hamohangmi? Ma'lum bo'lishicha, imtihon topshiriqlari Yevropa standartlari asosida tuzilgan. Shunday ekan, nomzoddan maktabda berilmagan bilimlarni talab qilish mantiqan to'g'rimi?



varaqalariga to'g'ri javobni qalamda belgilagani, bu natijalarini soxtalashirish, javoblarni istalgan vaqtida o'zgartirish uchun qilinayotgani haqida gapso'zlar tarqaldi.

Bu haqda mas'ul tashkilot sifatida tanlangan Cambridge Assessment tashkiloti ekspertlari bilan subbatlashdik.

Cambridge Assessment eksperti Grem Bejesning aytishicha, maktab yoshidagi bolalar testlarni yechayotganda xato qilishi mumkin. Yosh bolalar odadta bitta javobni belgilab keyin uning xato ekanini bilib qolgach, javobini o'zgartirmoqchi bo'ladi, ammo ruchka ishlatalganda javoblar varaqasidagi javobni to'g'ri lashning iloji yo'q. Testlarni tekshiradigan uskuna ruchkada ikkita belgilangan javobni inobatga olmaydi. Shu sababli bolalariga oson bo'lishi uchun ham javoblarni qalamda belgilash taklif qilingan. Bu butun dunyoda qo'llanadigan tajriba.

Imtihon jarayonini kuzatib, shunga amin bo'ldikki, javob varaqalari imtihon tugashi bilan xatjiddalgara solinib, xolis kuzatuvchilar ko'z o'ngida muhurlandi. **Imtihon varaqalari shu kunning o'zida Buyuk Britaniyaga olib ketildi.** Javoblar Cambridge Assessment tomonidan tekshiriladi va bu jarayonga o'zbekistonlik mahalliy mutaxassislar aralashtirilmaydi.

Imtihon haqida ota-onalarning fikrlari bilan ham qiziqdik.

— Qizim Lola Tohirjonova bu yil 8-sinfni bitirdi, — deydi Mirobod tumanida istiqomat qiluvchi Mastura Alixonova. — Prezident maktabi imtihoni juda adolatli va shaffof o'tyapti. Ko'rib turganingizdek, ota-onalar uchun ham barcha shart-sharoit yaratilgan. Qizim yoshligidan matematika va ingliz tiliga qiziqdadi. Avvaldan bilimlar bellashuvida ishtirot etib keladi. O'yaymanki, bu unga bugungi imtihona asqotadi.

Xayrullo ABDURAHMONOV,
"Ma'rifat" muxbirini

Mutasaddilardan javob keldi

"Texnologiya fanini guruhlarga bo'lmay o'tish ijobiy natija bermayapti"

"Ma'rifat" gazetasining 2019-yil 2-fevral sonida texnologiya fani o'qituvchisi G'ayratjon Qorabekovning "O'qituvchi fikri inobatga olinmadni" sarlavhali maqolasi chop etilgan edi. Unda Xalq ta'limi vazirligining 2018-yil 27-iyuldagagi 191-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1—11-sinflari uchun 2018-2019-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejasining 20-bandiga kiritilgan o'zgartirish natijasida o'quvchilar soni 25 nafardan kam bo'lgan sinflarda texnologiya, jismoniy tarbiya va chaqiriqqa qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanlari integratsiyalashgan o'quv dasturi asosida, bo'limmasdan o'qitila boshlanganini va bu holat amalda ijobji natija bermayotgani bayon qilingandi.

Xususan, maqolada texnologiya amaliy fan bo'lgani bois, bu fanning samarali va mazmuni tashkil etilishi o'quvchilarining o'g'il va qiz bolalar guruhlariga bo'lib o'tilishi bog'liqligi ta'kidlangan edi.

"O'g'il va qiz bolalar qo'shib o'qitilganda amaliy mashq'ulotlarga vaqt yetmayapti. O'quvchilar shundoq ham ikki guruhga bo'linib qoladi. Ba'zi o'g'il bolalar texnologiya darsiga kirishni o'ziga or bilib: "Salat tayyorchashni o'rganamizmi, ko'yuk tikamizmi?" degan masxaraomuz gaplar bilan fanga e'tiborsiz qaramoqda. O'smir psixologiyasidan kelib chiqilsa, bunday reaksiya tabiyidir", deb yozadi muallif.

Ushbu maqolaga Xalq ta'limi vazirligi rasman munosabat bildirib, tahririyatga xat yo'lladi. Jumladan unda shunday deyiladi:



"O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 140-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risida"gi Nizomning 29-bandida malakali mutaxassislardan yetarli bo'lgan ta'lim muassasalarida ma'lum bir umumta'lim fanlari, jumladan, mehnat ta'limi (texnologiya) fani sinflardagi o'quvchilar soni 25 nafar va undan ortiq bo'lgan taqdirda ikki guruhga bo'lib o'qitilishiha ruxsat berilishi belgilangan.

Gazetaning shu yil 9-sonida "O'qituvchilar fikri inobatga olinmadni" nomli maqolada mehnat ta'limi (texnologiya) fani o'qitishda o'quvchilarini guruhlarga bo'lib o'qitishning afzalliklari yoritilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan 2018-2019-o'quv yilidan boshlab Respublika umumta'lim maktablarida 11 yillik umumiy o'rta ta'limga o'tildi. Bugungi kunda 11 yillik umumiy o'rta ta'limga tegishli me'yoriy-huquqiy hujjalarni zamon talablarini, jamoatchilikning ta'limgasifatini yanada yaxshilash borasidagi taklif va mulohazalarini asosida takomillashtirish ustida malakali mutaxassislardan amaliyotchi o'qituvchilardan iborat ishchi guruhlar ish olib bormoqda.

Magola muallifining fikr-mulohazalarini ham o'rnatilgan tartibda ko'rib chiqilishini ma'lum qilgan holda, barkamol avlodni tarbiyalash yo'lidagi jonkuyarligingiz uchun minnatorlik bildiramiz".

Xalq ta'limi vazirligi tomonidan maqola muallifiga bildirilgan bunday munosabat muammoga kelgusida jiddiy e'tibor qaratilishi va yechim topilishidan darak beradi. Ustozlarimizning ta'limgasifatini yanada yaxshilash borasidagi taklif va mulohazalarini asosida takomillashtirish ustida malakali mutaxassislardan amaliyotchi o'qituvchilardan iborat ishchi guruhlar ish olib bormoqda.

TAHRIRIYAT

Sifatli metodik xizmat — ta'limga mazmuni garovi

Qarshi shahridagi Abdulla Oripov nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab-internatda viloyat xalq ta'limi boshqarmasi tomonidan "Uzlusiz metodik xizmat ko'rsatish sifati va metodistlar malakasini oshirishning dolzarb masalalari" mavzusida hududiy o'quv-seminar tashkil etildi.

Xalq ta'limi vazirining 2019-yil 3-iyundagi "Uzlusiz metodik xizmat ko'rsatish sifati va metodistlar malakasini oshirish bo'yicha hududiy o'quv-seminarlarni tashkil etish to'g'risida"gi buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida o'tkazilgan

o'quv-seminarda Respublika ta'limga markazi direktori o'rbinosari M.Pardonayeva, filologiya fanlari bo'limi boshlig'i G'.Hamroyev, aniq va tabiiy fanlar bo'limi metodisti Z.Sangirova, ijtimoiy fanlar metodisti Z.Jabborova, ta'limga sifati monitoringi bo'yicha

metodist F.Abdullayev mavzu yuzasidan ma'ruza o'qishdi.

Yalpi yig'ilishdan so'ng seminar sho'balarda davom ettirildi. 1-sho'bada filologiya fanlari metodistlari uchun, 2-sho'bada ijtimoiy-gumanitar fanlar metodistlari uchun, 3-sho'bada aniq va tabiiy fanlar metodistlari uchun, 4-sho'bada boshlang'ich va amaliy fanlar metodistlari uchun mashq'ulotlar olib borildi.

O'quv-seminarda O'zbekiston Qahramoni Muhabbat Sharopova ishtiroti etdi va o'zining ish tajribasi bilan o'tqoqlashdi.

Sho'balarda xalq ta'limi tizimida metodik xizmat ko'rsatishning huquqiy-me'yoriy asoslari, o'quv-tarbiya jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish, metodist faoliyatiga kreativ yondashuv, tayanch maktabi orqali o'qituvchi mahoratini rivojlantirish, xalqaro baholash dasurlari tadqiqotlariga tayyorlanishda metodistning o'mni va vazifalari kabi mavzular muhokama markazida bo'ldi.

Seminar yakunida o'tgan o'quv yilida ta'limga sifatini metodik xizmat ko'rsatishni takomillashtirish ishlardagi faoliogi uchun bir guruh metodistlar "Faxriy yorliq" bilan taqdirlandi. O'quv-seminar ishtirokchilariga sertifikat topshirildi.

Sevin OCHILOV,
viloyat xalq ta'limi boshqarmasi
bos metodi



O'qituvchi

nimani

o'glaydi?

O'quvchilar va ota-onalarda repetitorga ishonch, maktab ta'limga ishonchsizlik shakllanib qolgan. Bugun iqtisodiy murakkab ahvoldagi oila farzandi ham repetitora borishni o'ziga shart deb bilyapti. Ba'zan o'quvchilarimiz davlat yaratib berayotgan tayyor sharoitning, bepul ta'limga qadriga yetmayotgandek tuyuladi.

Shohida HAMROYEVA

Rahbarlik har taraflama yetakchilikni talab qiladi. Siyosiy bilimingiz sayoz, ma'navyiatingiz oqsqoq, aytayotgan gapingiz bilan qilayotgan ishingiz bir xil bo'imas ekan, rahbarlikdan sekingina chekingan ma'qul.

Aziza BOYMURODOVA

Qachonki oilada muhit yomon bo'lsa, maktabda olingan tarbiya uyga borganidan keyin o'z holiga qaytadi. Shu bois, maktab umuman tarbiyani alohida aspekt sifatida o'ziga singdirmasligi kerak. Shunchaki o'qitish kuchaytirilsa, bas, shunda ma'rifat shakllanadi. Bu tarbiyaning immunologik tayanchi hisoblanadi.

Bahrom MIRZAYEV

O'qituvchining puliga hamma oshiq. Hokim va uning muovinlari, MIB xodimlari, soliqchilar, sug'urtachilar... Shirinmikan shunchalik o'qituvchining puli?! Hatto direktorning o'ziham o'qituvchining maoshiga sherik. Maktabning ta'miri, gullab-yashnashi, keladigan tekshiruvchilarni mehmon qilish kabi xarajatlar muallimning chiqimisiz amalga oshmaydi.

O'QITUVCHI

Kichik yoshdagagi o'quvchilar uchun o'qituvchisi ulkan soyadek go'yo. Ammo nega o'quvchi ulg'aygan sari bu qoya pastlab ketadi. Biz o'qituvchilar cho'ka boramizmi yoki ular o'sib, bizning "ulkan" emasligimizni ko'rib qolyaptimi? Aslida, ularga doim qoya bo'lib ko'rinish uchun o'qituvchi o'sishdan to'xtamasligi, haqiqiy qoyaga aylanishi kerak. Biz esa ko'pincha to'xtab qolamiz.

Mahliyot KARIMOVA

Yoshlarga oid davlat siyosati — amalda

Ishonchingni oqlaymiz, Vatan!

(Davomi. Boshi 1-betda.)

Mard o'g'lonlar safi kengaydi

Har yili o'nlab vatanparvar, fidoyi yoshlar orden va medallar, Zulfiya nomidagi davlat mukofoti, "Kelajak bunyodkori" medali, "O'zbekiston belgisi" ko'krak nishoni, O'zbekiston Yoshlar ittifoqi mukofoti bilan taqdirlanmoqda. Jumladan, 2017-yili barcha jabhada tengdoshlariga o'rnak bo'layotgan yigitlarni rag'battantirish maqsadida ta'sis etilgan "Mard o'g'lon" davlat mukofoti ko'plab yoshlarning orzularida mustahkam qanot bo'lyapti. Har yili mazkur mukofot bilan 28 nafr azamat taqdirlanadi. 30-iyun kuni davlat mukofotining bu yilgi sovrindorlari nomi e'lon qilindi. Ular orasida Jizzax davlat pedagogika instituti talabasi Sayfiddin Okanov ham bor.

— Kimdir yelkangga qo'lini qo'yib, barakkalla, yaxshi ishlayapsan, desa qanday quvonib ketasiz! Quvonch bilan birga yelkangiza mas'uliyat zalvori tushgandek bo'ladi. Men ham bugun ana shunday quvonch va mas'uliyatni his etyapman, — deydi u. — Ijodkor birovdan nimadir kutib, umidvor bo'lib yozmaydi. Qoralamalari uchun haq ham kutmaydi. Avvalo, quvonchi yoki hissiyotini baham ko'rish, kimgadir sirdosh bo'lish uchun yozadi. Ammo ijodining e'tirof etilgani har bir qalamash uchun katta baxt. Bu yil 24 yoshga to'lamon. Qarang, mana shu yoshimda davlat mukofoti sovrindori bo'ldim. Bir havaskor ijodkor uchun bundan ortiq e'tirof bo'lishi mumkinmi? Bu mukofot mena qanot, ota-onam, oilam a'zolari, yaqinlarimga ifixor berdi. Albatta, bu ishonchni oqlash uchun bugungidan ham ko'proq harakat qilaman.

Xorijda o'qish yaxshi, ammo...

Yurtimizda hech bir soha e'tibordan chetda emas. Ayniqsa, yoshlar qatlarni qamrab olgan sohalari. Shu jumladan, ta'lim yo'naliishiham keng qamrovli ishlar amalga oshirilyapti. Davlatimiz rahbarining bayram tabrigida ta'kidlanganidek, mamlakatimizda tashkil etilayotgan yangi-yangi bog'chalar, maktablar, oliy o'quv yurtlari, nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari, madaniyat va sport inshootlari, "Temburbeklar maktabi", "Prezident maktablari", "Ijod maktablari" deb nom olgan mutlaqo yangi namunadagi ta'lim maskanlarini bugungi globallashuv sharoitida raqobatqa qodir bo'lgan yetuk kadrlarning yangi avlodini tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Ko'plab yoshlarimiz chet el grantlari asosida xorijning nufuzli oliy ta'lim muassasalarida tahsil olib yoki malaka oshirib qaytmoqda.

— Xorij granti asosida bir yil Hindistoni Agra shahrida tahsil oldim. Bir necha tanlovlarda ishtirok etdim, — deydi Toshkent davlat sharqshunoslik instituti talabasi Nurxon Yoqubova. — Chet elda o'qiyotgan kezlarim minbarga nutq so'zlash yoki taqdirlanish



uchun chiqqanimda, O'zbekistondan, deb e'lon qilishganda ko'ksimda iftixor, faxr tuyg'ulari jo'sh urchanini va sog'inch bo'lib bo'g'zimga tifqilganini sezardim. Bu holatni so'z bilan ta'riflab bo'lmaydi. Musofirlikda o'zga davlatlardan kelgan talabalar bilan tanishdim. Ularning hayoti, mamlakati haqidagi hikoyalarini tingladim. Qaytishimizdan bir hafta oldin shrilankalik dunganaming yurtida portlash bo'lgani haqida eshittdik. Ota-onasidan xabar yo'q ekan. Unga qo'shilib kechasi bilan yig'lab chiqqidik. Shunda angladimki, qaytishing uchun tinch yurtning, Vataning borligining o'zi katta baxt. Ko'ngling xoritjam, xavotirlarsiz oolang bag'riga qaytasan... Hindistonda bayramlar juda ko'p, hatto yomg'ir yog'sa ham nishonlashadi. Ammo yoshlar kuni yo'q! O'zbekistonda yurgan odamga bilinmaydi. Yurdan olisda uning osmoni, har bir daraxti, hatto changko'chalar ham qanchalar qadrli ekanini his etasiz.

Jazolash emas, tarbiyalash kerak

Yurtimizda barcha yoshlarga shu Vatanning teng huquqli farzandni sifatida baravar munosabata bo'linadi. Nafaqat mukofot olgan, hayotda o'z o'mini topgan yoshlar, balki adashgan, bilib-bilmay noto'g'ri yo'lgaga kirgan, xato qilib boshi xam bo'lganlarga ham alohida e'tibor qaratiladi. Ularni jazolashga emas, tarbiyalashga asosiy urg'u beriladi. Shu yilning o'tgan davrida yoshlar jinoyatichiligi 2018-yilga nisbatan 37 foizga kamaygani, adashib xato yo'lgaga kirgan, qilmishidan chin dildan pushaymon bo'lgan 599 nafr yigit-qizning Yoshlar ittifoqi kafilligi asosida sud zaldan ozod qilingani, ularga yengil jazo turlari tayinlangani jamiyatimizda

kechirimlilik, mehr-oqibat va o'zaro ishchonch muhitini kuchaytirish yo'lidagi yangi qadamdir.

— Hamma qatori ota-onamning davrida o'ynab-kulib yurgan edim, — deydi 18 yoshli Sobira Hasanova (iltimosiga ko'ra, ism-familiiyasini o'zgartirdik).

— Jinoyat qilib jazo o'tashim tushimga ham kirmagan edi. Ammo... Akam juda qattiqqo'l edi. Lekin uni yaxshi ko'rardim. Har qadamimni o'chab, tergardi. Telefon ishlatsi qo'ymasdi. O'zingiz o'ylang, men yosh bola emasman-ku, o'shanda kollej bitiruvchisi edim. Akam dan qo'rqardim, ammo dugonalardan kam bo'lismi istamasdim. Yashirinchal telefon ishlattardim. Bir kuni oshxonada telefonimidan musiqa eshitgancha ovqat qilayotgandim. Qo'limda pichoq bor edi. Bir payt akam kelib qoldi. Odatda bu vaqtida uuda bo'lmasdi. Osmondan tushdimi, yerdan chiqdimi, qanday keLIB qolganini bilmayman. "Senga nima degandim", deb baqirib ustimga bostirib keldi... Keyin...keyin... Bexosdan, atayin emas... Qo'limda pichoq bor edi. Hammadan onamga qiyin bo'ldi, bir farzandi endi bu olamda yo'q, ikkinchisi esa qamoqqa olinishi mumkin edi. Yoshlar ittifoqidan minnatdorman, tashkilot kafilligi tutayli sud zaldan ozod qilindim. Hayotimni izga solishim uchun yana bir bor imkon berildi! Hozir o'qishga tayyorlayapman. Akamni juda sog'inaman. Koyishlari ham davlat ekanligini bilmagan ekanman. O'qishga kirib, yaxshi o'qisam, yaxshi joylarda ishlab onamni boshimda ko'tarib yursam, akam ham meni kechirar deb o'zimni yupataman...

Rag'batga munosib harakat

...Musiqa sadolari balandlaydi. Bayram shuhuhi o'tmishni eslab g'ashlan-

gan ko'ngillarga ham taskin bera boshlaydi. Shu o'rinda O'zbekiston Yoshlar ittifoqi faoliyatiga to'xtalib o'tsak. Bunguni kunda ittifoq o'z safida 7 million 680 ming yigit-qizni birlashtirgan. Yoshlarning vaqtini unumli o'tkazish, ularni iste'dodiga ko'ra yo'naltirish maqsadida ittifoq tarkibida "Yosh ijodkorlar kengashi", "Yosh olimlar kengashi" kabi tuzilmalar faoliyat yuritmoqda. Ushbu kengashlar o'z yo'nalishi bo'yicha ko'plab iste'dodli yoshlarni kashf etmoqda. O'zlashtirish ko'rsatkichi 86 foizdan yuqori bo'lgan talabalar uchun loq-shartnomma summasining 35 foizi Yoshlar ittifoqi tonmonidan to'lab berilayapti. Shahribonu Umirboyeva shunday rag'batga munosib ko'rilgan yoshlardan.

— Bayram shuhuhi tongdanoq vujudimni qamrab oldi. Uyg'onishim bilan tabriklar, ko'ngilga yoqadigan gaplar eshitdim, — deydi intiluvchan talaba. — Avvalambor, mana shu kunning bayram sifatida moshonlanayotgani biz yoshlarga zavq-shavq baxsh etadi. Davlatimiz tomonidan qaratilayotgan e'tibor kuchimizga kuch, g'ayratimizga g'ayrat qo'shyapti. Ayniqsa, bugungi tadbirdagi harakatchan, timim bilmas yoshlarni — Vatanimizga, o'z kelajagiya ishongan, oldiga aniq maqsad qo'yib, ulkan yutuqlarga erishgan tengdoshlarimni ko'rib, shunday insonlar bilan bir safda ekanimidan ko'ksim faxrga to'idi. Konservt davomida vujudimni ajib his chulg'ab oldi. Mana shu Vatanimizga bo'lgan muhabbatni umrim mobaynida asrab, shu xalq, shu diyor uchun astoydil xizmat qilishga tayyorligimni tushunib yetdim. Biz yoshlarning yutuqlarimiz kundan kun ortaversin, jahon minbarlarida mag'rur boshimiz egilmasin.

Charos YOQUBOVA,
"Ma'rifat" muxbirini

"Oftoboy"ning "Oymomo"lari

Talim maskani tomon yaqinlashganimizda ajoyib musiqa taralyotgani, darvoza oldi va hovlilarga suv seplib, gul-u rayhonlar hidi taralyotgani kayfiyatimizni ko'tardi. Maktab binosining bir tomonida bolalarning sho'x qiyqirig'i va shodon kulgisi, narigi tomonida "beshtosh" o'ynayotgan qizlarning ovozi yangrardi.



Poytaxtimizdagi 153-maktab o'quvchilar bu yerda to'rt guruhga bo'linib, yozgi ta'tilni mazmunli o'tkazishmoqda. Fan o'qituvchilar nazoratida "Yosh kitobxon", "Happy English", "Mohir qo'llar", "Ranglar jilosii", "Yosh matematiklar" to'garaklari, stol tennisi, musiqa, rus tili va kompyuter savodxonligi mashg'ulotlariga o'g'il-qizlar ixtiyoriy ravishda jaib etilgan.

Yoshlar ittifoqining Yashnobod tuman kengashi tashabbusi bilan tashkil etilgan "Yozni "Kamalak" bilan!" loyihasi o'quvchilar tomonidan katta qiziqish bilan qabul qilinmoq-

da. Qolaversa, kichik yoshli bolalar o'ttasida "Oymomo kim tarafda?" loyihasi tashkil etildi. Unga ko'ra, har bir yo'nalişdagagi tafsinga sazovor ishlar maktab devoriy gazetasida e'lon qilinadi. Bundan tashqari, unda oromgohdagagi turli musobaqalarda birinchilikni qo'lga kiritgan o'g'il-qizlar suratlari ham chop etiladi. Har mavsumda g'olib bo'lgan ishtirokchilarga "Oymomo" rag'bat kartochkasi va sovg'alar taqdim etiladi.

Yaqinda tugagan ikkinchi mavsumda 120 nafar bola hordiq chiqardi, — deydi maktab direktori Sabohat Sultonova.

— Shu kunlarda oromgohning uchinchi mavsumi ish boshlandi. Ertaga tongdan o'g'il-qizlar bu yerga quvoniq kirib kelishadi, tushga qadar turli to'garaklarga qatnashishadi. Biz o'tgan oyni "Yoshlar oyi" deb e'lon qildik va maktabimizdagi iqtidori o'quvchilarining ijodiy va qo'l mehnatiga oid ishlarini ko'rsatish maqsadida ko'rgazma tashkil etdik. Iste'dodli o'quvchilarining tasviriy san'at, adabiyot va texnologiya fanidan yaratgan ijod namunalari tengdoshlari va ota-onalarda katta qiziqish uyg'otdi.

Shoira BOYMURODOVA

"Mash'al" bolajonlarni chorlaydi

Izboskan tumanidagi "Mash'al" bolalar oromgohida yozgi sog'lomlashtirish mavsumining ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Tadbirda tuman hokimi S.Ismoilov, hokim o'rinnbosari F.Jo'rabyev, tuman XTB mudiri S.G'aurov, Yoshlar ittifoqi tuman kengashi raisi O.Kenjaboyev va jamoatchilik vakillari ishtirok etdi. Oromgoh rahbari M.Kazakova bu maskan ta'mirlanishi, mavsumga tayyorlash ishlardagi faol ishtiroki uchun mutasaddi tashkilotlar va mas'ullarga minnatdorlik bildirdi.

Oromgohning so'lim joyda — o'rmon huddida joylashganligi bolalar uchun ayni mud Dao. Shifobaxsh toza havoda hordiq chiqarish

152 nafar dam oluvchi uchun yaxshi imkoniyat. So'zga chiqqanlar oromgohda o'tkazilajak tadbirlar mazmun-mohiyati besh tashabbusga hamohang bo'lishi lozimligini ta'kidladi.

Tadbir so'ngida tuman madaniyat bo'limi xodimlari shu hududagi maktab o'quvchilarini ijrosida badiiy chiqishlar, qo'g'irchoq teatr tomoshasi, sport chiqishlari namoyish etildi.

Mohidil XUSHVAQTOVA

Andijon viloyati

G'allaorol tumanining Qashqabuloq qishlog'ida joylashgan "Kamolot" bolalar sog'lomlashtirish oromgohida dam oluvchilarining har kuni sermazmun o'tmoqda. Oromgohda hordiq chiqarayotgan 100 nafardan ortiq bolalarning sho'x shodon qiyqirig'i va o'yin-kulgilari bir dam ham tinmaydi.

Sangzor sohilidagi ta'til

Dam olish maskani Sangzor daryosi sohilida joylashgan bo'lib, bu yerdagi so'lim manzaralar, anvoyi gullar tarata-yotgan yoqimli hid, anhorda oqayotgan zilol suv barchanining rang-barang bo'yoqlarda chizgan suratlari, mohir qo'llar ijodi — o'yinchoqlar va nafis naqshlarni ko'rib, beixtiyor hayratlanasiz. Har bir xona ozoda va batartib, ko'chma kutubxona dam oluvchilar ixtiyorida.

Oromgohda "Lochin", "Parvoz" va "Kamalak" guruhlarining devoriy gazetalar, bolajonlarning rang-barang bo'yoqlarda chizgan suratlari, mohir qo'llar ijodi — o'yinchoqlar va nafis naqshlarni ko'rib, beixtiyor hayratlanasiz. Har bir xona ozoda va batartib, ko'chma kutubxona dam oluvchilar ixtiyorida.

Bolalarning kayfiyati juda yaxshi. Ularning chehrasida quvoneh balqib turibdi. Ke-lajagimiz vorislariga bo'lgan yusufsak e'tiborni insoniylikning eng yuqori darajasi deb bilamiz, — deydi oromgoh rahbari, xalq ta'limi a'lochisi Akmal Aliqulov.

Dam oluvchilar Sangzor daryosiga tutash joydagagi bog'rog'lar, jilg'alar va buloqlarni tomosha qilib, muqaddas qadamjolarni ziyyorat qildilar. Bu bolalarning yurtimiz tabiatiga mehrni oshirish barobarda ularni milliy qadriyatlarimizni avaylab-asrashtga o'rgatadi.

Oromgohlarda olib borilayotgan har bir tadbir bolalar dunyoqarashini boyitish, ijodiy qobiliyatini shakkantirish, ma'naviy kamol topishida yordami beruvchi asosiy tarbiya vositasi bo'lib xizmat qilmoqda, — deydi viloyat kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi yetakchi mutaxassis To'liboy To'ychiyev.

Oromgohda bolalarning maroqli dam olishi uchun barcha shart-sharoit yaratilgan. Tarbiyachi va yetakchilar bilan bir qatorda to'garak rahbarlari va sport yo'riqchilariga zarur maslahatlar berilib, tegishli qo'llannalar taqdim etilgan.

Abdulla SAIDOV

Jizzax viloyati

"Alpomish"da doirachilar ijrosi

Samarqand shahar hokimligi madaniyat bo'limi tasarrufidagi madaniyat va aholi dam olish markazlari qoshidagi badiiy havaskorlik jamoalarini tomonidan "Yoz — o'tmoqda soz" deb nomlangan ko'ngilochar tadbirlar shahar tashqarisida joylashgan "Alpomish" oromgohida tashkil etib kelinmoqda.

Kuni kecha ana shunday madaniyat tadbir oromgohda dam olayotgan o'quvchilar ishtirokida o'tkazildi. Unda 2-madaniyat markazi qoshidagi "Doirachilar" to'garagi qatnashchilarini ijrosida namoyish qilingan doira zarbalar barchada qiziqish uyg'otdi.

Konsert dasturida xushovoz xonandalar Akramjon Husenov, Anvar Ahadov, Sherzod Tursunov, Salohiddin Oripov qo'shiq kuyladi. Ayniqsa, yosh iste'dodli xonanda Azimshoh O'lmasov ijrosidagi ashulalar barchaga zavq bag'ishladi.

Ochil JUMANAZAROV

Anvar AHADOV
olgan surat.



O'qituvchi minbari

O'qituvchining saviyasidan nega qoniqmayapmiz?

Xalqimiz azaldan ziyo ulashuvchi odamlarni mulla (ya'ni ziyoli), ilm-u urfon ahlini esa domulla (katta mulla, katta ziyoli) deb atab, ma'rifat ahliga bo'lgan hurmatini ifoda etgan. Elga ma'rifat ulashib, ma'naviyat chashmasidan bahramand etgan o'qituvchini doim izzat-ikromga sazovor, munosib ko'rgan.

O'zim ham o'qituvchiman. 40 yillik tajribamga asoslanib aytu olamanki, hech qaysi davrda o'qituvchiga bu qadar imkoniyat va imtiyozlar berilgan emas. Mamlakatimizda o'qituvchi va maktabning obro'sini oshirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarga to'xtalib o'tirmay, sohadagi muammolar va ularning yechimi haqida fikrashmoqchiman.

Bugungi kunda viloyatimizdagi 1 214 maktabda o'quvchilariga 49 mingdan ziyod pedagog ta'limga beryapti. Ularning 82 foizi oliy ma'lumotli, 1,6 foizi oliy toifali, 60 foizdan ko'prog'i mutaxassisidir. Ko'rinib turibdiki, viloyatimizda toifaga ega o'qituvchilar soni respublika ko'rsatkichidan kam. Bu esa qayta tayyorlash va malaka oshirish masalalariga zamon talabiga muvofiq, kompleks yondashish ehtiyojini vujudga keltirdi. Bunga pedagogning bilimi va mahoratini oshirish orqali erishish mumkin. Ushbu jarayon faqat ta'limga boshqarish organlarining emas, avvalo, pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish huduyi marказlari faoliyatining asosiy yo'nalishidir.

Biroq masalaning boshqa tomoni ham bor: bugun o'qituvchilar bu g'amxo'rlik va e'tiborga javoban o'z faoliyatida qanday o'zgarishlar qilyapti? Umuman, o'qituvchining ayni paytdagi faoliyati, uning bilimi va pedagogik mahorat bobidagi saviysi, ma'naviy qiyofasi, innovatsion o'zgarishlarga moyilligidan ko'nglimiz to'lyaptimi? Shu kabi savollarga javob topish maqsadida qator kuzatuv, tahlil va so'rovlar o'tkazdik.

Xusus, oxirgi olti oy mobaynida malaka oshirish kurslariga kelgan muallimlarning bilim, ko'nikma va malakalari 11-sinf umumta'lum fanlari kesimida, o'zi dars berib kelayotgan o'quv materiallari asosida sinovdan o'tkazildi. Sinova oliy ma'lumotli tinglovchil-o'qituvchilar ishtirok etdi. Natija o'ta past — ularning atigi 6 foizi "5", 20 foizi "4", 33 foizi "3" baho oldi. 41 foizi tinglovchining bilimi qoniqarsiz babolandi. Endi xolisanillo aytin: maktab dasturini to'laqonli bilmaydigan o'qituvchidan nimani kutish mumkin? Oliy ma'lumotli o'qituvchi diktantni savod bilan yoza olmasa, kelajagimiz bo'lmish farzandalanrimizning taqdirdini shunday o'qituvchiga ishonib topshirish mumkinmi? Axir bu, eng avvalo, kasbga, kelajak avlodga xiyonat emasmi?

Bunday holat qachon va qanday vujudga keldi? Albatta, aybni jamiyat, boshqaruv tizimi bilan bog'lab qo'yish mumkin. Lekin, nima bo'lganda ham, bunga birinchi galda o'qituvchining o'zi sababchi. Bu hol yuzaga kelishiga o'z kasbini sevib, hayotining mazmuni deb biladigan fidoyi o'qituvchilarining kamayib ketgani,

ko'plab muallimlar o'z ustida ishlamay qo'ygani, ta'limga boshqaruv organlari va maktab rahbarlari tomonidan nazorating sustligi sabab bo'ldi.

Ta'limga tizimi mamlakat kelajagini belgilashi hisobga olinmay, uni molivayvi qo'llab-quvvatlash o'rniiga, qisqartirishlar qilib, katta xatoga yo'l qo'yidik. Nuqtayi nazar, eskicha qarashlar tez kunda o'zgaradigan holat emas. Bu masalada "uni qildik", "buni qildik" mazmunidagi hisobot-u ma'lumotnomalar bilan xalqni aldash bo'lmaydi. Muallimga imtiyoz berish barobarida uning mas'uliyatini oshirish choralar ham ko'riliishi kerak. Ta'limga kamchiliklarni yashirish, xaspox'lash nimaga olib kelishini ko'rdik.

Shunday ekan, muammolarga tik qarab, ularning yechimiga javob izlash fursati yetidi.

Samarqand viloyati hokimi Erkinjon Turdimov joylarda ta'limga masalalariga bag'ishlangan yig'ilishlarda ayrim o'qituvchilarining o'z fanidan oddiy savollarga javob bera olmaganini, hatto maktab rahbarlarining bilimsizligini o'rni tanqid qilgan edi. Viloyat rahbarining kuyinib bildirgan tanqidiy fikrlardan tegishli xulosa chiqarish maqsadida keng ko'lamli kuzatuv va tahlilarni olib bordik.

Bugun o'qituvchilarimiz faoliyatidagi asosiy kamchiliklardan biri — bu kasbiy kompetentiliikning yetishmasligi. Ayrim o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi, o'z mahoratiga ishonishi, mutaxassisligini puxta bilishi va shu kabi kasbiy kamolotni belgilab beruvchi xususiyatlarni namoyon qila olmayotgani achinarlidir.

Ikkinchidan, ko'plab o'qituvchilarining o'z ustida ishlamasligi, ilg'or tajribalar, tizimdagiligi yangiliklarni o'rganib, ish faoliyatida qo'llamasligi ularning zamonda ortda qolishiga sabab bo'lmoida. Muallimlarning o'z ustida mustaqil ishlashini muvoqiflashtirish tizimi ham yo'q.

Uchinchi omil o'qituvchining o'z ishiga ijodiy yondashmasligidir. Ko'plab o'qituvchilar darsda yangi, innovation metodlari qo'llamasligi (aniqrog'i, qo'llay olmasligi), zamonaevi pedagogik texnologiyalardan foydalananmasligi, aksariyat muallimlar esa pedagogik texnologiyalarni besamar qo'llayotgani ayni haqiqat.

To'rtinchidan, aksariyat o'qituvchilar, hatto maktab rahbarlari ham darslarni kompleks tahlil qilishni bilmaydi. Seminar yoki trenirlarda ba'zi o'qituvchilarga darsni tahlil qiling, desangiz, "Mashg'ulot menga yoqdi" yoki "Menga yoqmadi", deyishdan nariga o'tmaydi. Darsning

metodik jihatni, ilmiyligi, yutuq va kamchiliklari nimalardan iboratligi, psixologik talablarga javob berdimi, mashg'ulotda qo'llab-quvvatlash maqsadiga erishildimi — afsuski, bular haqida ko'p o'qituvchilar muayyan tushunchaga ega emas. Bunday o'qituvchilar mantiqiy fikrash, tadqiq qilish, hisoblash, o'chash, yashash, sinash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish kabi pedagogik usullarni bilmaydi.

Beshinchidan, ba'zi o'qituvchilarining dars ishlansmasi (konsept), mashg'ulotning texnologik xaritasini tuzishni bilmasligi ham ta'limga sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Aksariyat o'qituvchilarining konseptida darsning tashkili qismi, o'tilgan mavzuni so'rash, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, yangi mavzuni tushuntirish, mustahkamlash, o'quvchilar bilimini baholash, uya vazifa berish kabi tarkibiy qismalar to'liq yoritilmaydi.

Oltinchidan, dunyoda bo'layotgan global o'zgarishlar, mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi tub islohotlar, siyosiy jarayonlarning mazmun-mohiyati ni yaxshi bilmasligi, tashqi siyosatdan be-xabarligi, bir so'z bilan aytganda, g'oyaviy va mafkuraviy savodxonlikning yetishmasligi pedagoglarning ijtimoiy mavqeysi salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Yettinchidan, ko'plab o'qituvchilarining kompyuter texnologiyalardan foydalananishni hanuzgacha yetarli darajada o'zlashtirmanagi ularning o'z ustida mustaqil ishlashiga yana bir to'siq bo'lib "xizmat qilyapti". Bugungi kunda muallimlarning qo'lida qimmatbaho telefon bor, lekin ular ijtimoiy tarmoqlar, ta'limga oid sayt va kanallardan foydalanan, tajribasini shu tarmoqlarda keng ommalashtirishni bilmaydi. Achnilarisi, ular axborot-ta'limga portalini (eduportal.uz), O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi (uzedu.uz), O'zbekiston Respublikasi jamoat ta'limga axborot tarmogi (ziyonet.uz), Xalq ta'limi sohasida AKTni rivojlantirish markazi (multimedia.uz), viloyat xalq ta'limi xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi (sammoi.uz) saytlari kabi ta'limga oid saytlar, "Ma'rifat" gazetasi (@marifatziyo), "Boshlang'ich ta'lum" jurnali (@bt1992) singari o'nga yaqin ta'lum nashrlarining "Telegram" kanallari faoliyat yuritayotgani haqida tasavvurga ham ega emas.

Xalq ta'limi vazirligi tomonidan barsha fanlar bo'yicha yaratilgan zarur metodik qo'llanma va multimedia ilovalari yetkazib berilgan bo'lsa-da o'qituvchilar ulardan har doim ham foydalananmayti. Disk va metodik qo'llanmalar o'qituvchining g'aladonida yoki direktorning shkafida qolib ketyapti.

Kommunikativ axborotlar bilan ishslash, o'zini o'zi rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolik, milliy va umummadaniy, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklari dan xabardor bo'lish hamda foydalanan kompetensiyalari nima va ular qanday shakllantirilishi lozimligini bilmaydigan

o'qituvchi bugun ta'limga sifatini ko'tarishga yordam berolmaydi. Dars jarayonida bunday kompetensiyalarini shakllantirish uchun qanday pedagogik usullardan foydalanan kerakligini o'qituvchi nafaqat bilishi, balki amalda bajarishi zarur. Bunday kompetensiyalar o'qituvchining o'zida shakllanmagan bo'lsa, ularni qanday qilib o'quvchilarida shakllantirira oladi? Yuqorida qayd qilingan kamchilik va nuqsonlarni bartaraf qilish uchun o'qituvchi nima qilishi kerak? Buning yagona yo'li — o'z ustida ishslash. Boshqa yo'li yo'q!

O'qituvchining kasbiy malakasini munazam oshirib borishi bugun davr talabiga aylandi. Lekin malaka oshirish jarayoni — bu o'qituvchining barcha nuqsonlardan xalos bo'lishi degani emas. Qars ikki qo'lidan, deyidilar. O'z ustida ishlasmaydigan, o'zini qiyashni istamagan pedagog nuqsonlardan qutulolmaydi.

Ma'lumki, o'qituvchi besh yilda bir marta malakasini oshiradi: bir oyda 144 saat hajmida malaka oshirish kursida shug'ullanadi. Bu yetarli emas, albatta. Eng avvalo, maktabning o'zi malaka va mahoratni oshirish o'chog'i bo'lishi kerak. U yerda darslarga kirish va kuzatish, tahlil qilish, yangi innovatsion usullarni keng joriy etish, o'zaro tajriba almashish, ja'moatchilik nazoratini yo'lg'a qo'yish, ilg'or pedagogik tajribalarni ommalashtirish ishlari tashkil etilishi zarur.

Bugun malaka oshirish jarayoni ham shaklan, ham mazmuna yangicha qiyofa kasb etishi lozim. Malaka oshirish kursiga kelgan o'qituvchi pedagogik mahoratni oshiribgina qolmay, metodik mukammallikka erishish barobarida ruhiy tayyorgarligini oshirishi, tafakkurini, ijodkorlik xususiyatlarini boyitishi lozim. Samarqand viloyat xalq ta'limi xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi o'z faoliyatida ayni shu yo'nalishga alohida e'tibor qaratmoqda.

Hozirgi kunda markazga har oyda o'r-tacha 900 nafar tinglevchi malaka oshirish uchun keladi. Bu yerda 48 ta o'quv auditoriyasi, 4 ta o'quv laboratoriysi, 210 o'rniли tinglovchilar turajoyi, 3 ta sport zali va maydon, 3 ta majlislar va konferensiya zali, amfiteatr, axborot-resurs markazi va 3 ta oshxona tinglovchilar ixtiyorida.

Ilg'or pedagogik tajribalarni ommalashtirish, professor-o'qituvchilar salohiyatidan unumli foydalananish hamda viloyat o'qituvchilarini metodik jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida "Pedagogik innovatsiyalar markazi" faoliyatini yo'lg'a yoldi. Unda o'qituvchilarga uslubiy yordam ko'rsatish maqsadida o'quv-metodik materiallarni tizimli yaratish, viloyatdagi reytingi past maktablarda mahorat darslari, seminarlar va boshqa tadbirlar o'tkazish amaliyoti keng joriy etilmoqda.

Saidahmad USMONOV,
Samarqand viloyat xalq ta'limi xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish hududiy markazi direktori

Abituriyent — 2019

Yunusobod — Chilonzor — Yashnobod

Yoxud abituriyentlarga davlat xizmatlari qanday ko'rsatilmoqda?

2019-2020-o'quv yili uchun milliondan ortiq abituriyent hujjat topshirishi taxmin qilingandi. Hujjat topshirish muddatining teng yarmi o'tib bo'lganini inobatga olsak, respublika bo'yicha 1-iyul holatiga ko'ra bor-yo'g'i 84 755 nafar abituriyentdan hujjat qabul qilingan. Nazarimizda, yana 900 mingdan ortiq abituriyent hamon so'roq ostida turgan tillar kesimidagi kvotalar va fanlar majmuasi tasdiqlanishini kutmoqda. Qabul jarayonining so'nggi kunlari hujjat topshirish va qabul qilish ishlari qizg'in tus oladi chog'i.

Shunday bo'lsa-da, qabul davom etmoqda. Bugungacha abituriyentlar birinchi oly ta'lif muassasasi sifatida ko'proq quydagi OTMlarni tanlashmoqa: Samarqand, Urganch, Guliston, Andijon davlat universitetlari hamda Toshkent davlat pedagogika universiteti.

Abituriyentlardan hujjatlarni qabul qilishda eng ko'p xizmat Sirdaryo viloyati Boyovut tumani davlat xizmatlari markazi tomonidan ko'rsatilgan.

— Qabul jarayoni boshlangandan beri abituriyentlardan 375 ta ariza kelib tushdi(28-iyun holatiga ko'ra), — deydi Boyovut tumani davlat xizmatlari operatori Akmal Avazov. — Shulardan 370 tasi Guliston davlat universiteti, 3 tasi Samarqand davlat universitetiga yo'naltirildi, Farg'on davlat universiteti va Toshkent davlat yuridik universitetiga bittadan hujjat qabul qilindi.

Yunusobod DXM tomon...

Abituriyentlarning hujjat topshirish jarayoni bilan tanishish maqsadida bir nechta DXMga bordi. Jumladan, Yunusobod tumanidagi davlat xizmatlari markaziga borishidan avval turnaqator abituriyentlarning uchratishni taxmin qilgandik. Lekin markazda ikki nafar abituriyent hujjat topshirayotganini ko'rdik, xolos.

— Bugungacha markaz tomonidan 20 nafar abituriyentning hujjati qabul qilindi. Ularning deyarli barchasini Toshkent davlat yuridik universitetiga hujjat topshirdi, — deydi Yunusobod tuman davlat xizmatlari markazi operatori Komila Sharipova. — Shu kungacha boshqa OTMga topshirish uchun biron ta abituriyent murojaat qilganicha yo'q. Agar murojaat qilinsa, xizmat ko'rsatasa.

Yaxshi! Biroq Toshkent davlat yuridik universitetiga hujjat topshirayotgan qoraqalpog'istonlik Temur Kopjursinovga DXM xodimlari yuridik universitetdan tashqari yana ikkita OTMga hujjat topshirish imkonsizligini aytdi. To'g'ri, Toshkent davlat yuridik universitetining fanlar majmuasida ona tili (3,1), chet tili (2,1) va tarix (1,1) ketma-ketligida tasdiqlangan. Bunday ketma-ketligi boshqa birorta yo'nalishda mavjud emasligini hisobga olsak, haqiqatan ham, TDYUga hujjat topshiradigan abituriyentlar uchta yo'nalishni tanlash imkoniyatidan mahrum. Lekin joriy yilgi test sinovlari uchun fanlar majmuasida ayrim yo'nalishlar bo'yicha o'zgarishlar bo'lishi kutilmoqda. Unga ko'ra, TDYUga hujjat topshirgan abituriyent Qoraqalpoq davlat universitetining "Yurisprudensiya" hamda Toshkent davlat o'zbek tili va

adabiyoti universitetining "Noshirlilik ishi" yo'nalishlariga ham hujjat topshirishi mumkin bo'ladi. Ammo Temurning shaxsiy ma'lumotnomasida qolgan ikki yo'nalish bo'sh qoldi, ya'ni u hozirinchim imkoniyatdan mahrum. Masala yana tillar kesimi va fanlar majmuasining tasdiqlanmaganiga borib taqalyapti.

15-iyundan shu kungacha respublika bo'yicha yuzlab abituriyentlar aynan Toshkent davlat yuridik universitetiga hujjat topshirgan. Bu degani — ular faqat 1 ta OTM bilan cheklangan. Komila Sharipovaning aytishicha, abituriyentlarning ikkinchi va uchinchi yo'nalishni tanlab hujjat topshirishga haqqi bor, ammo fanlar majmuasining tasdiqlanmaganiga bunga izn bermaydi.

Masalaga oydinlik kiritish maqsadida Toshkent davlat yuridik universiteti qabul komissiyasiga qo'ng'iroq qilib, fanlar ketma-ketligi haqida so'radik. Qabul komissiyasi mas'ul xodimi fanlar ketma-ketligi ona tili va adabiyot, chet tili va tarixdan iboratligini aytdi. Universitetning rasmiy saytiga kirib ko'rganimizda esa hamon eski ma'lumotlar turganiga guvoh bo'ldik. Hech bo'limsa, saytdagi ma'lumotlar yangilanishi kerak, nazaramizda.

Chilonzor DXMd'a nima gaplar?

Chilonzor tuman davlat xizmatlari markaziga borganimizda ham faqat ikki nafar abituriyentning uchratdir. Ular ham Toshkent davlat yuridik universitetiga hujjat topshirayotgan edi. Biz boshqa OTMlarga hujjat topshirmoqchi bo'lgan abituriyentlarga qanday xizmat ko'rsatilayotgani bilan qiziqdik. Aslida boshqa OTMlarga hujjatlar rostdan ham qabul qilinayotganini sinab ko'rish uchun Chilonzor tuman davlat xizmatlari markaziga bo'lim boshlig'i Furqat Tojiyev bilan shaxsiy ma'lumotlarimizni tizimga kiritdi. Tanlovimga ko'ra dastlab Farg'ona davlat universitetini, qolgan ikki yo'nalishga esa Qarshi hamda Termiz davlat universitetlarning filologiya yo'nalishini tanladik. Hujjat topshirish davomida tizimda birorta texnik xatolik kuzatildi. Xomcho'timizga ko'ra hujjatlarni tizimga kiritib ro'yxatdan o'tish uchun taxminan 8 daqqaq vaqt sarflandi, xolos.

— To'lov tartibiga kelsak, kvitansiya tayyor bo'lgandan so'ng abituriyentlar 2 xil usulda badalni to'lashi mumkin, — dedi Furqat Tojiyev. — Birinchi, kvitansiya chiqarilib, bank orqali to'lov amalga oshiriladi. Ikkinchi, onlayn to'lov tizimi orqali plastik karta yordamida to'lash ham mumkin. Bunda kvitansiya shakllangandan so'ng "Plastik karta orqali to'lov" so'rovi pay-

do bo'ladi. Shu orqali va kvitansiyadagi invoys raqamini kiritish orqali to'lov amalga oshiriladi.

Xo'sh, kvitansiya qanday yaratiladi? Biometrik pasportga ega bo'lgan abituriyentlar Davlat test markazining pay.dtm. uz sayti orqali o'ziga to'lov kvitansiyasi yaratib, chiqarib olishi mumkin. Buning uchun shaxsiy identifikatsiya raqami, pasport seriyasi va raqami hamda telefon raqamini kiritib, "Yaratish" tugmasini bosishi kifoya. Bundan tashqari, ular DXM yoki OTMga borib, to'lov kvitansiyasi chiqarib olishi ham mumkin. Shuningdek, biometrik pasportga ega bo'lmagan (pasport yoshiga yetmagan yoki o'rtalik fuqaroligi yo'q) abituriyentlar esa davlat xizmatlari markazlariga yoki olyi ta'lif muassasalariga borib, shaxsimi tasdiqlovchi hujjatni taqdim etgan holda to'lov kvitansiyasi chiqarib oladi.

So'nggi manzil — Yashnobod

Yashnobod tumanidagi DXM orqali esa 13 nafar abituriyent hujjat topshirgan. Ularning 11 nafari Toshkent davlat yuridik universitetiga, qolgan ikki nafari Qoraqalpog'iston va Samarqand davlat universitetiga hujjat topshirgan.

— E'tibor bersak, Toshkent shahridagi DXMlarni orqali hujjat topshirayotgan abituriyentlar soni kam. Bunga sabab balki Toshkent shahrida faqat yuridik universitet uchun hujjatlar qabul qilinayotganidir, — deydi Yashnobod tuman davlat xizmatlari markazi direktori Baxtiyor Ahmedov.

Balki yuridik universitetdan tashqari qolgan to'itta universitetga abituriyent o'zi yashayotgan joydagи DXM orqali hujjat topshirishi mumkinligiga haliyam ishonmas yoki ular hujjatlarni OTMning o'ziga borib topshirgan ma'kul deb o'yashar. DXMlarni orqali hujjat topshirayotgan talabgorlarning kamliga ro'yxatda faqat beshta OTMning mavjudligi yoki har bir OTMning o'zida ham qabul komissiyasi ishlayotgani sabab bo'layotgandir. Lekin abituriyentlar uchun xodimlarimiz bilan sifatl xizmat ko'rsatishga doim tayyormiz.

Yana bir gap: davlat xizmatlari markazlaridagi xodimlar 100 dan ortiq turdag'i davlat xizmatlarini ko'rsatish bilan bir qatorda abituriyentlardan ham hujjat qabul qilyapti. Ularga alohida shtat tashkil qilinmagan. Shu masalani ham so'raganimizda abituriyentlarning hujjat topshirish muddati faqat bir oy va bu ja-rayon respublikaning barcha OTMlarni hali to'liq qamrab olmagani va keyin qamrov bosqichma-bosqich amalga oshirilishini, qamrov kengaygandan keyin xodimlar uchun ham alohida shtatlar tashkil qilinishini ta'kidlashdi.

Xorijiy fuqarolar uchun qabul qanday bo'ladi?

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 20-iyundan "Xorijiy fuqarolarni O'zbekiston Respublikasi ta'lif muassasalariga o'qishga qabul qilish va o'qitish tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirish kiritish haqida"gi 517-sonli

qarori qabul qilindi. Unga ko'ra xorijiy fuqarolarning respublika OTMlari suhbat asosida qabul qilinishi belgilangan. Va ular hujjat topshirish uchun OTMning o'ziga murojaat qiladi.

Qarorga muvofiq, xorijiy fuqarolar oliv ta'lif muassasaları bakalavriatiga OTM tomonidan belgilangan tartibda o'tkaziladigan suhbat natijasiga ko'ra qabul qilinadi. OTMlarga umumiy o'rtalik yoki o'rtalik maxsus, kasb-hunar ta'lifi ma'lumotiga muvofiq ma'lumotga ega bo'lgan xorijiy fuqarolar qabul qilinishi mumkin.

Shu o'rinda aytish kerakki, ilgari faqat MDH mamlakatlardan kelgan xorijiy fuqarolar OTMlarga suhbat asosida qabul qilangan bo'lsa, boshqa davlat fuqarolari esa test topshirgan.

Shu o'rinda...

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetiga qabul yakunlanishi bilan bog'liq turli xabarlar oxirgi ikki kunda ko'payib ketdi. Ko'philik abituriyentlar qabul tugaiganidan xavotirlanib umid uzgandi. Lekin shu kuni O'zbekiston Milliy axborot agentligi tarqatgan xabarga ko'ra, Davlat test markazi boshqarma boshlig'i Diyorbek Qo'chqorov masalaga quydigicha izoh bergan:

— O'zbekiston oliv ta'lif muassasalariga qabul 15-iyulgacha deb belgilangan. Faqat Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti uchun alohida qaror chiqqan. Unga ko'ra sinovlarning birinchi bosqichi 5-iyulga qadar yakunlanishi kerak. Shuning uchun JIDUda hujjat qabul qilish avvalroq yakunlanadi. Lekin bunda ilk sinovlardan o'ta olmagan abituriyentlar boshqa OTMga hujjat topshirishiga imkon bo'ladi.

Universitetning rasmiy saytida ham qabul 15-iyundan 5-iyulga qadar davom etishi haqida xabarlar joylangan. Demak, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetiga o'qishga kirish istagi abituriyentlar uchun halim imkon bor.

Xulosa bunday...

Xulosadan avval yana bir gap, mutasaddilar tomonidan abituriyentlar hech qayerga bormay turib, onlaysiz tarzda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali — my.gov.uz orqali ham o'qishga onlaysiz hujjat topshirishi mumkinligi aytilgan edi. Bir necha urinishlar bilan ham onlaysiz hujjat topshirilmayotgan abituriyentlar yana vaqt va pul sarflashga majbur. Mazkur masala yuzasidan Davlat xizmatlari markazi AKT bo'limi bosh maslahatchisi Olimjon Abdullayev bilan bog'langanimizda, internetdan hujjat topshirish uchun dastur ochib qo'yilishi kerak, bu masala bilan Elektron hukumat va raqamli iqtisodiyot loyihibarini boshqarish markazi hamda Davlat axborot tizimlarini yaratish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha yagona integrator shug'ullanishini aytди.

Yuqorida tashkilotlarning bilan bog'lanishga harakat qildik, biroq urinishlar besamar ketdi.

Fayzoa AVLAYEVA,
"Mařifat" muxbirı

Ezgulikning millati bormi? Nomusning, orning, ishonchning vatani qayer? Va... va muhabbatning-chi, muhabbatning?!

Mutolaa

Asar kristalsimon bo'ladi

Men ijodi haqida gapirmoqchi bo'layotgan muallifning yag'rindor gavdasini kurashchiga o'xshatsangiz, ming bir kinoya bilan, boz ustiga qo'ng'irot shevasini qorishtirib gapirishidan shahar ko'rgan fermerlardan bo'lsa kerak, deya o'ylaysiz. Mabodo u kishi gapiga kitobiy so'zlardan qo'shib qolsa, o'qituvchimikan, degan gumonga borasiz. Men uni sizga tanishtirib qo'yay: na kurashchi, na fermer, na o'qituvchiga o'xshatolmay ikkilanayotganingiz — yozuvchi Luqmon Bo'rixon bo'ladi!

Sirli ishora va noma'lumlik ortidagi qahramon

Yozuvchining "Quyosh hali botmagan" qissasi shunday so'zlar bilan boshlanadi: "Ming to'qqiz yuz sakson ikinchi yilning bahorida, erta-indin uchinchi jahon urushi boshlanar emish degan mish-mishlar xo'b avj olgan kunlarning birida..."

Ya'mi yozuvchi bu bilan jahon urushidan sira kam bo'ligan bir kurash, go'yo bir "jang" haqida sirli ishora qilayotgandek tuyuladi sizga. Zero, asarning o'zi ham qalbida turli qarama-qarshilik, po'rtana-yu to'fonlar avj olib bu chigal ziddiyatlararo o'zlarini topishga qynalgan uch o'spirin ruhiyatining muvozanatga yetishi to'g'risidadir.

"...kunlarning birida, — davom etadi muallif, — usta Abilning ayida qoramag'iz, to'zg'in sochlari jingiltob, qoshlari qiyig'och, kipriklari uzun-uzun, ko'zlar ma'yus, yetti-sakkiz yashar qizaloq paydo bo'ldi"...

Kitobxonada "qoramag'iz, jingiltob sochli qizaloq"ning kimligiga qiziqish paydo bo'ladi: "Tanzila kim o'zi? Millati nima? Vatani qayer", degan savollar o'tadi uning ko'nglidan. Muallifning o'ziga xos yozuvchilik texnikasini ko'rib, hayratga tushasiz. Axir, aytin, qaysi umuminsoniy fazilat millat tanlabdi? Ezgulikning millati bormi? Nomusning, orning, ishonchning vatani qayer? Va... va muhabbatning-chi, muhabbatning?!"

Qissa qahramonlari Norsoat va Davronning qiliqlari, orzu-maqсадлари bir-biriga ikki tomchi suvday o'xshar, hatto shiorlari ham bir edi: "Quyosh hali botmagan!" deyishardi ular qachonki, qalbi oftobday yorishsa. "Quyosh hali botmagan!" — Qachonki, qalbiga bulut soya tashlasa, bola ko'nglini qandaydir tuyg'u paypaslab o'tsa, ular qo'llarini havoda sermab, baravariga shu shiorni tilga olishardi.

Absal polvonning kechmishi

Davronning otasi — Quvondiq qaysars ikki do'stni polvonning oldiga shogirdlikka olib keladi. Na ustoz ko'rgan, na biror mashq-mashg'ulotda qatnashgan, sibizg'a chalishni ko'proq yaxshi ko'radigan Absal polvon esa ularning hafsalasini pir qiladi. Buni payqagan Quvondiq qaysar polvonning

bir vaqtlar loyga botib qolgan eshakni qishloqqa ko'tarib borgani, to'y-u hashamlarda nomdor polvonlarni bir hamladayoq yigitgani, polvonlik unga ilohiy yuqtirilganini, xilvatninish yashashi pirlar buyrug'iga binoan bo'layotganini aytib qancha maqtamasin, bu do'stlanmay huyratlantir olmaydi.

"— Bir-ikki televuzurda ko'rganman, — deydi hitto Davron u haqida Norsoatga, — qo'lidagi xalacho pni silkith-silkith ko'p odamga kuy chaldiradigan chollar bo'lardi, shulardan buning farqi yo'q ekan!".

Ammo Davrondan farqli ravishda Norsoat Absal polvon bilan o'tgan ilk kunlardoqung aqqa qiziqib qolib, keyinkeyin undagi ilohiy xislatlarni tuygandek bo'ladi. Absal polvonning o'zi kabi bosha bir atoyi polvon — Ahmat polvon bilan shogirdlariga amaliy mashg'ulot o'tayotganida ham Davron ular mashg'ulotida bahsni ko'rsa, Norsoatga ular ikkisi bir bo'lib allaqanday ko'zga ko'rinnas kuch bilan olishayotganga o'xshab ko'rindi.

Gapirishni ko'p-da suymaydigan Absal polvon bir gal ularni yoniqa olib:

"Polvon odam uch narsaga hokim, uch narsaga qul bo'lishi kerak", — deya gap boshlaydi.

"Men bilaman, — uning gapini bo'ladi Davron, — polvon nafsiga, shuhuratparastlikka, manmanlikka hokim bo'lishi kerak... bir kitobda o'qiganman".

Absal polvon uning so'zini ma'qullab, qolganini ham aytishini so'raydi.

"Polvon uch narsaga qul bo'lishi kerak, — Davron davom etadi, — haqiqatning, or-nomusning..." — biroq uchinchisini bila olmay, to'xtab qoladi.

"Sibizg'aning!" — deb yuboradi shu payt beixtiyor Norsoat. Bu fikrga Absal polvon e'tiroz bildiradi.

O'quvchi ko'z oldida bahaybat qaddimi bukib sibizg'a chalayotgan Absal polvon, polvonning yuz-ko'zlaridagi ma'yusiyat, uning muhabbat bilan bog'liq dardli-iztiroblig kechmishi gavdanadi.

Hurlik keltiruvchi qullik

Bir oy shogirdlik mashg'ulotidan

"Quyosh hali botmagan!" — Qachonki, qalbiga bulut soya tashlasa, bola ko'nglini qandaydir tuyg'u paypaslab o'tsa, ular qo'llarini havoda sermab, baravariga shu shiorni tilga olishardi.

keyin Norsoat va Davron Absal polvon bilan xayrashib, qishlog'iga qaytadi. Bu paytda Tanzilaning bo'yiga bo'y, chiroyiga chiroy qo'shilgan, qissa qahramoni bo'lgan ikki do'st ham ishq-muhabbat haqida xayol suradigan yoshsa yetib qolishgan edi... Orada yozgi ta'il boshlanadi-yu, Tanzila toqqa giyoh terishga, Davron otasi bilan xorijda dam olishga, Norsoat esa tirikchilik uchun cho'lida istiqomat qiluvchi pochchasinikiga tarqalib ketishadi.

Olis cho'l bag'rida ham tashqi, ham ichki tomonidan jazirxona kunda beomon toblanayotgan Norsoat ruhiy evrilishlar girdobiga tushib qoladi. Dardini aytib yengil tortay desa, do'sti Davron uzoqda. Shunda uning to'satdan sibizg'a chalgisi kelib qoladi. Xuddi Absal polvon aytgani, yo'q-yo'q, bamisolil ilohiy bashorat qilganiday kuyinib-o'rtanib, sibizg'a chalgisi kelaveradi. Endi u "Kengsøyburgutlari" to'dasining o'yingaroq a'zosi emas, Norsoat edi! Oshiq-u shaydo, ma'yus-u o'ychan... o'zini anglay bosh-lagan Norsoat!

Bunday anglash jarayonida u do'sti bilan o'zini qiyoslab ko'rib, Tanzilaning sevgisiga Davronni ko'proq munosib deya topar ekan, ilk marta o'zining yetim ekanini, qo'li kalta, egni yupun ekanini his etadi. Axir, Davronning otasi kimsan, rais Quvondiq qaysar, boz ustiga do'stining o'zi ham ancha ko'rkam, sershiddat, baqvват yigit. Qizlar shunday yigitga ko'ngil qo'ysin-da, o'ylardi Norsoat. Aslida esa, Davronning Tanzilan sevmasligigina unga yupanch va dalda edi.

Bu daldaga suyanib oradan yillar o'tadi. Norsoat bilan Davron harbiy xizmatni o'tab qaytishadi. Kunlardan bir kuni esa Davron do'sti Norsoatga uydagilar uylanasan deb holi joniga qo'ymayotganini, uzoq o'ylab ko'rgach, u uylanish uchun Tanziladan mosroq qiz topmaganini bildiradi.

"— Tanzilani tilga olma, — dedim arang.

— Nima?! Nega... tilga olmay?

— U... u meniki...

— Seniki?! Ux, ti, pismiq, qoyilmam senga! Menga bir og'iz aytmay, zimdan ish pishitish yurgan ekansan-da, a? Non sindirdilaringmi?

— Yo'-o'q, hali...

— Yo'halo ovloq-ovloqda uchrashib, ahd-u paymon qilib yuribiszalarimi?"

Biroq, Norsoat agar Tanzilaga Davron sovchi qo'ysa, qizning uyidagilar do'stining otasi hurmati uchun ham rad etisha olmasligini yaxshi bilardi. Shuning uchun bu kelishuvga rozi bo'la olmaydi.

— "Kel, ikkovimiz masalani boshqacha hal qilamiz", — deydi so'ngra Davron.

— Qanday?

— Ota-bobolarimiz an' anasi bo'yicha hal qilamiz. Ikkovimiz kurashamiz. G'olib Tanzilaga egalik qiladi. Ham domillaning to'yi qiziysi. Qalay? Bu gapga ko'narsan endi, a?

Ha, Davron meni burchakka qisgan edi! Uning taklifiga rozi bo'lishdan boshqa ilojim qolmadni.

— Bo'pti, kurashamiz, — dedim qat'iy, — lekin... lekin bu kelishuv o'rtamizda, hech kim bilmasini.

Davron asabiy bir tarzda xoxolab keldi.

— Ey, oshing halol bo'lsa, ko'chada ich, degan maqol bor-a. Sen nimadan qo'rqayapsan?

— Men hech narsadan qo'rqmayman. Tanzila gap-so'zga qolmasin tag'deyapman.

Afsuski, Norsoat o'ziga ixtiyorsiz bir vaziyatda sevgisini garovga qo'yan, masala hal bo'lishi kerak bo'lgan o'sha to'uda ikki do'stning o'rtasidagi kelishuv butun qishloqqa ovoza bo'lgan edi. Bundan esa Norsoat Tanzilaning nomi oldida xijolatga tushib oyoq-ql'illari bo'shashsa, yoshlikdan qahramonlikka o'ch bo'lgan Davronning ilhomji jo'shib, kuchiga-kuch qo'shiladi. Nihoyat, kurash boshlanganda Davronning ikki marta qilgan hamlasiga zo'rg'a turib bergen Norsoat, do'stini to'g'rilikcha yengisiga qurbi yetmasligini tushumib yetadi.

Tanzilaning tanlovi

Rais Quvondiq xonardonida to'y harakatlari allaqachon boshlanib ketgan. Biroq, qanchadan qancha hijron alamini boshdan kechirayotgan Norsoat vijdon azobida yonib-o'rtanib, kuli chiqib borardi. Shunda u bor gapni Tanzilada aytishim kerak, shu bilan uning ham, Davronning ham oldida o'zimni pok-lagan bo'lamani, degan qarorga keladi. Tanzilani o'qish joyiga qidirib borib, una bor gapni ochiq-oydin aytadi.

Ammo qalbning jamiat qonun-qoidalari rad etishi mumkin bo'lgan o'z mangit'i, o'z haqiqatini bor! Qolaversa, Norsoat sof muhabbat olovida toblanish barobarida o'zini yengib, Norsoat bo'lganiday, Tanzila ham allaqachon Tanzila edi!

— Qo'rqmang, — deb pichirlaydi qiz unga, — men na Oybarchinman, na malika Diloromman... o'sha Davronning ming marta mardlik pesh qilsayam baribir unga tegmasdin'.

Asarning eng kulminatsion nuqtasiga yetganda, barcha kitobxon do'stlarimga "Quyosh hali botmagan" qissasini mutolaa qilishni tavsiya etaman. Zero, kristall bo'lakchasingin o'nlab qirrasi ko'zga chalinib, yana qanchasi ko'zdan panada qolgani kabi, asarning men ko'ra bilmagan jihatlarini siz ilg'ashingiz tayin.

Bayram Ali QO'L DOSHEV

Qashqadaryo viloyati

Noodatiy fikrlash mahorati yoxud kreativlik qanday shakllantiriladi?

Bugun dunyoda yuz berayotgan to'rtinchisanoat tamaddunining dvigateli — harakatga keltiruvchi kuchi kreativlikdir. Atrofqa boqsangiz, har tomonda inson ijodkorligining beqiyos va hayratlanarli namunaliga duch kelasiz: elektron xizmatlar, virtual reallik, to'rburchak taruzlar, tupoqslis holsi olish... Bularning barchasi inson tasavvuri, tafakkuri mahsuli. Bugun biz uchun odatiy tuyulgan kitob, musiqa, bino, samolyot, hatto lampalar ham qachonlar orzu va tasavvurda bo'lgan, keyinchalik aql-idrok samarasini o'laroq yaratilgan.

G'ildirakning kashf etilishidan boshlangan yaratuvchanlik namunalari bugun koinotda kezib yuribdi. Innovatsiyalar kundalik turmushimizda qulayliklar yaratadi, og'rimizni yengil, uzog'i-mizni yaqin qiladi. Shu tarzda kreativlik taraqqiyotning ajralmas bo'lagiga aylangan. Barcha sohada ijodiy fikrlovchi mutaxassislariga talab katta. Dunyoga mashhur dasturiy mahsulotlar, mobil telefonlar ishlab chiqaruvchi kompaniyalar mutaxassislaridan har kuni yangi g'oya so'raladi. Mehnat bozorida kreativ fikrlovchi mutaxassislariga talab oshib borayotgan ekan, ta'lim jarayonida o'quvchi-talabalarning noodatiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish, rivojlanirish dolzarb vazifadir. Haligacha ta'lim tizimida ko'plab yondashuv va metodlar ijodiy fikrlash emas, talqin va tahlilga, ya'ni berilgan ma'lumotni tushunib, to'g'ri yetkaizishga, nari borsa, bir necha axborotni umumiylashtirish, xulosha chiqara olishga o'naltirilgan.

Xo'sh, ta'lim oluvchilarni qanday qilib kreativ fikrlashga o'rgatish mumkin? Innovatsiya yaratish uchun tafakkurdan qanday o'zgarishlar kechishi lozim?

Tasavvur bilimdan muhim(mi?)

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlanish uchun dastlab bu tushunchaning mazmunini bilish lozim. Kreativlik inglizcha "create"dan olingan bo'lib, yaratish ma'nosini bildiradi. Kreativlik deganda insonning yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyat tushuniladi. Uning tagzamirida originallik, amaliylik, noodatiylik va erkinlik yotadi. Shuningdek, kreativ fikrlash muayyan masala yuzasidani har tomonloma fikrlash, bir nuqta turli rakursdan yondashishni anglatadi.

Kreativlik shaxsni rivojlaniruvchi kategoriya sifatida inson tafakkuri, ma'naviyatinning ajralmas qismi hisoblanadi, u shaxs ega bo'lgan bilimlarning ko'pqirrali ekanligida emas, balki yangi g'oyalarga intilish, o'matilgan stereotiplarni isloq qilish va o'zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy orqolar chiqarishda namoyon bo'ladi. Ya'ni, berilgan bilimlarni takrorlash orqali kreativlikka erishib bo'lmaydi, ijodiy fikrlash jarayonida yangi fikr, yangi g'oyanining paydo bo'lishi asosiy shardir. Masalan, ingliz tilida so'zlarni yodlab, grammatica qoidalarini "suv qilib ichib yuborgan" bo'lsangiz ham, insho yozolmasangiz, barchasi bekor. Shuning uchun kreativ fikrlash jarayonida tasavvur muhim rol o'ynaydi. Albert Eynshteyn "Tasavvur — bilimdan muhim" deganida aynan mana shu jihatni nazarda tutgani.

Ko'pincha noodatiy fikrlar, yechimlar kutilmaganda inson xayoliga keladi. Buning uchun, avvalo, fikrlash jarayonidagi bir xillikka, odatiylikka barham berilishi lozim.

Qoliplardan voz kechamiz

Inson miyasi o'z ishini "yengillashtirish", "qulaylashtirish" uchun shablon va stereotiplardan foydalanadi. Stereotiplar shu paytgacha ma'lum bo'lgan va umumqabul qilingan fikrlardir. Ular asosida fikrlash bizga hech qanday yangi g'oya bermaydi. Qoliplarning yuzaga kelishida jamiyatda ustuvor bo'lgan ijtimoiy fikr, mediamahsulotlarda taqdirmi etilayotgan shakl va ko'rinishlar ham yetakchi o'rinnatadi. Inson ommadan ajrab qolmaslik nuqtayi nazaridan hammaning fikriga qo'shiladi. Qolaversa, "oqim bo'ylab suzish" mustaqil fikrlashdan ko'ra oson tuyuladi. Stereotiplar orqali fikrlaganda muayyan mavzu bo'yicha inson ongiga "so'rov" berilganida odatiy ma'lumot va mulohazalar yuzaga keladi. Masalan, "yangi yil" deganda to'kin dasturxon, reklamadan tushmaydigan gazli ichimlik-lar, archa va hokazolarni tasavvur qilish, bobo obrazida qo'lida hassa tutgan, ko'zoyakli cholni ko'rish qolip asosida fikrlashning ko'rinishi. Kreativ fikrlovchi insonlar odatiy manzaralardan o'zgachoq tasvirlarni ham tasavvur qilib, hech kim ilg'amagan jihatlarni payqaydi, yangilik yaratoladi.

Eng ajablanarli jihat, ta'lim-tarbiya jarayoni ham bolalarni bir xil fikrlashga o'rgatib qo'yarkan. Mashhur ixtirochi va kashfiyotchilarning aynan maktabdagida ta'lim jarayonidagi bir xillikka ko'nikolmagani, qoliplarga sig'maganini ko'rish mumkin. Masalan, Albert Eynshteyning muktabdan haydalishi yoki Dmitriy Mendeleevning kimyo fanidan "uch" olgani bunga misol bo'ladi.

Ken Robinson tomonidan tayyorlangan va YouTube saytida 5 million marta tomosha qilingan "Maktab kreativlikni barbod etyaptimi?" nomli videolavhada ham shu xususida so'z boradi. Har o'rganish jarayonida qolalarning belgilangan chiziqlar bo'ylab yozishi, topshirqlarni bajarishda namunalarni orqali ishlashi, adabiyot darslarida asarni qanday tushunish kerakligi to'g'risida ma'lumotlar berilishi, pedagoglarning yaxshi bajaruvchilarini yaxshi baholashi natijasida bolalar qoliplar doirasida fikrlash bosholaydi. Oqibatda ko'plab yoshlar topshiriq berilsa, namuna bormi, deb so'raydigan holga kelgan. Bu oldin mayjud bo'lgan modellar asosida ishlashga o'rganib qolish natijasi. Bunday vaziyatni yechim o'rtasida sizga ijodiy maydon paydo bo'lidi. Endi yangi g'oya mayhum

ijodkorlik sifatlarini tarbiyalashga ahamiyat qaratilishi maqsadga muvofig. Masalan, o'quvchilarga "Sizga bir kunda 86400 AQSh dollarini berilsa, uni nimalarga sarflagan bo'lardingiz?" kabi noodatiy savollar berilishi mumkin. Bu savol o'quvchining topqiril, bilag'onlik, ijodkorlik, masalaga turli nuqtayi nazaridan qaray olish, yashirin jihatlarni o'chish kabi xislatlarni rivojlanitiradi. Sababi, 86 400 bir kundagi soniyalar miqdorini anglatadi. Savol orqali o'quvchiga har bir soniya qimmati anglatiladi, uni behuda sarflarnaslik uqtiriladi. Agar o'quvchi savol tagidagi mohiyatini anglamasa, unda kreativ va evrestik sifatlar past hisoblanadi.

Qolip va stereotiplar asosida fikrlashning bir necha ko'rinishlari bor. Masalan, qutbi tafakkur — hamma narsani ikki shaklda — yaxshi yoki yomon deb qabul qilish, dunyoni oq va qora rangda ko'rishdir. Aslida, yaxshi yoki yomon narsaning o'zi mayjud emas, uni fikrlarimiz shundayga aylantiradi. Har bir holat va jarayonning ijobji hamda salbiy jihatlari bor. Bir tomonloma yondashuv, asosanmagan xulosalar ham stereotiplar asosida fikrlashning ko'rinishlari.

Ijodkorlikni yuzaga keltirish uchun stereotiplarning ongosti darajasida ijoddan cheklovchi funksiya, shablonlardagi to'siqni anglash, qoliplardan voz kechish zarur. Kumir, brend va modaga ergashish mustaqil fikr kushandasini hisoblanadi. Kiyinish, o'zini tutish, kasb tanlash, hatto fikrlashdagi taqlid bunyodkorlik faoliyatidan cheklashi mumkin. Shuning uchun nega aynan shu kiyimni tanladim, nima uchun shu ichimlikni xarid qilyapman, deb OAV, reklama orqali inson ongiga majburan singdirilayotgan ta'sirlardan voz kechish mustaqil qaror qabul qilishga, media qurshovidan chiqishga sabab bo'ladi.

Mashqlar

Tomas Edison "Kreativlik — g'ayri-ixtiyoriy jarayon", deydi. Lekin har kuni ko'plab mutaxassislar muammolarga noodatiy yechim topishga zaruriyat sezadi. Ular mana shu g'ayriixtiyoriy jarayonni ixтиyoriylashtirishi mumkinmi? Tabiatida yangi fikrlarni yuzaga keltiruvchi "sehrli tayoqcha" yo'q, biroq har qanday mutaxassisning kreativ o'yashiga ko'maklashadigan ko'plab usullar mayjud. Buning uchun ijodiy fikrlashga vaqt ajratish, ijodiy salohiyatni anglash lozim. Jorj Bernard Shou hazillashib shunday deydi: "Ko'pchilik yiliga ikki-uch marta o'yaydi. Mening butun dunyoga mashhurligim sababi — haftada bir yoki ikki marta o'ylaganim". Demak, xayolga kelgan yangi fikrlarni e'tiborsiz qoldirmsaslik, o'yash uchun imkon yaratish muhim.

Ijodkorlik chegarasini belgilang. Muammoli masalaga duch kelgan paytindan ijodkorlik chegaralarini birlashtirish orqali planshet, yuk mashinasiga antenna o'rnatalib ko'chma stansiya, qayiqqa osib qo'yilgan mato tufayli yelkanli kemalar paydo bo'ladi. Shotlandiyalik shifokor J.Danlopning o'g'li tosh yo'ldan velospedda yurib qiyinalar edi. Danlop bog'ini shlang bilan sug'ora turib, uning yengil pruijinasiyon sakrashiga e'tibor berdi. Natijada birinchi bo'lib shinani kashf etdi.

Shuningdek, kreativlikning mikro va makrosignalarni anglash, uning inson fiziologiyasi bilan bog'liq jihatlari, ya'ni qanday holatlarda inson xayoliga yangi fikrlar kelishini bilish ham muhimdir.

"Olti shlyapa" usuli. Edvard de Bono taklif etgan "Olti rangli shlyapa usuli"da biror mavzu tanlanadi. Navbatnavbat shapkalar kiyiladi: oq — diqqat bilan, hech qanday emotsiyasiz barcha faktlar tekshiriladi; qora — kamchiliklar aniqlanadi; sariq — mayjud holat tahlil etiladi; yashil — yana yangi bir necha g'oyalar qo'shiladi; qizil — emotsiyonal munosabat bildiriladi; ko'k — ish xotimalanadi. Masalan, ta'lim tizimiga oid qonunchilikni takomillashtirish mavzusi ko'riliyotgan bo'lsa, mayjud qonunchilik o'rganiladi, kamchilik va bo'shiliglar aniqlanadi. Qonuniy me'yorlarning real holat bilan mosligi yoki qarama-qarshiligi o'rganiladi. Ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi takliflar beriladi, ular amalga oshsa, qanday samara berishi izohlanadi. Taklif loyiha shaklida rasmiylashtiriladi.

Uolt Disneyning kreativ fikrlash nazarasi. Uolt Disney ko'ngilochar sohada o'z sanoatini yaratgan, animatsion multfilmlar bilan butun dunyoga tanilgan shaxs. U dunyoga mashhur personajlarini yaratishda kreativlikning uch fazasi — xayolparast, realist, tanqidchi obrazidan foydalanadi. Ya'ni, xayolparast rolida hech qanday chegarasiz xayol suradi, fantaziya yaratadi. Bujarayonda u Baxning "Tokkata, fuga re minar" musiqasini eshitishini aytgan. Xayolida obrazlari yaratilgandan keyin uni reallik bilan uyg'unlashtiradi. Personaj qanday harakatlanadi, qanday gapiradi — barchasini konstruktur sifatida jonlantiradi, realashtiradi. Shundan keyin xayolparast va realist ishini tanqidchi ko'rib chiqadi. Tanqidchi "filtr" vazifasini bajaradi. Uolt Disneyning yutug'i xayolparast, realist, tanqidchini bitta shaxsda jamlay oiganidir. Odatiy fikrlovchilarda ularning bittasi ustuvorlik qiladi.

Tasodiflarga befarq bo'lmang. Juda ko'plab ixtiolar favqulodda va tasodify holatlarda amalga oshirilgan. Ya'ni, taqdirdan o'zi insonga nozik ishoralar beradi. Bu Isaak Nyutonning boshiga tushgan olma, antibiotikni kashf etgan olim Aleksandr Flemming yuviylay qolib, mog'orlagon laboratoriya idishlari ko'rinishi bo'lishi mumkin.

Bir-biriga bog'liq bo'lmagan naralarini bog'lash. Mobil telefon va kompyuter imkoniyatlarini birlashtirish orqali planshet, yuk mashinasiga antenna o'rnatalib ko'chma stansiya, qayiqqa osib qo'yilgan mato tufayli yelkanli kemalar paydo bo'ladi. Shotlandiyalik shifokor J.Danlopning o'g'li tosh yo'ldan velospedda yurib qiyinalar edi. Danlop bog'ini shlang bilan sug'ora turib, uning yengil pruijinasiyon sakrashiga e'tibor berdi. Natijada birinchi bo'lib shinani kashf etdi.

Shuningdek, kreativlikning mikro va makrosignalarni anglash, uning inson fiziologiyasi bilan bog'liq jihatlari, ya'ni qanday holatlarda inson xayoliga yangi fikrlar kelishini bilish ham muhimdir.

Sanobar JUMANOVА, "Ma'rifat" muxbirи

Shoazizov Nodir Nigmatillayevichning 14.00.36 — Allergologiya va immunologiya. 14.00.04 — Otorinolaringologiya ixtisosligi bo'yicha «Tez-tez kasallanadigan bolalarda surunkali sinusit rivojlanishining immunologik mexanizmlari va immunokorreksiyanı asoslash» mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (RhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zR FA Immunologiya va inson genomikasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.30.08.2018. Tib.50.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2019-yil 12-iyul kuni saat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100060, Toshkent shahri, Yahyo G'ulomov ko'chasi, 74-uy.
Tel/faks: (71) 233-08-55; e-mail: immunologiya@qip.ru

Tursunova Nodira Isroilovnaning 14.00.14 — Onkologiya ixtisosligi bo'yicha "Bachardon tanasi saratonida R53, BCL-2 genlarining ahamiyati va ularning prognozdagi o'rni" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04.12.2018. Tib.77.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 11-iyul kuni saat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Forobiy ko'chasi, 383-uy. Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi majlislar zali. Tel/faks: (71) 227-13-27, 246-15-96; e-mail: info@ronc.uz

Almuradova Dilbar Muradovnaning 14.00.14 — Onkologiya ixtisosligi bo'yicha "Uch karra salbiy sut bezi saratonini tashxislash va davolashda zamonaviy yondashuv" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04.12.2018. Tib.77.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 11-iyul kuni saat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Forobiy ko'chasi, 383-uy. Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi majlislar zali. Tel/faks: (71) 227-13-27, 246-15-96; e-mail: info@ronc.uz

Sattarova Barnoxon Nabiyevnaning 02.00.09 — Tovarlar kimyosi va 02.00.10 — Bioorganik kimyo ixtisosligi bo'yicha «Tovuq go'shtini kimyoviy tarkibi asosida tasniflash va sertifikatlash muammolari» mavzusidagi (kimyo fanlari bo'yicha) falsafa doktori (RhD) dissertatsiyasining himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.27.06.2017.K.05.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 12-iyul kuni saat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel/faks: (73) 244-44-02; 244-44-91; e-mail: alijon.ibragimov.48@mail.ru

Botirova Shaxlo Isamiddinovnaning 10.00.02 — O'zbek adabiyoti ixtisosligi bo'yicha «Hozirgi o'zbek romanlarida badiypixologizm (Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat", "Isyon va itoat", "Sabo va Samandar" romanlari misolida)» mavzusidagi (filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.30.05.2018.Fil.70.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 8-iyul kuni saat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy.
Tel/faks: (75) 225-34-13, 221-00-56; e-mail: qarshidu@umail.uz

Sharopova Ra'no Jaxonovnaning 10.00.01 — O'zbek tili ixtisosligi bo'yicha «O'zbek tili ijtimoiy-siyosiy terminlarining semantik-struktur xususiyatlari va leksikografik talqini» mavzusidagi (filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.30.05.2018.Fil.70.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 8-iyul kuni saat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy.
Tel/faks: (75) 225-34-13, 221-00-56; e-mail: qarshidu@umail.uz

Tukfatullin Oskar Faritovichning 01.04.10 — Yarimo'tkazgichlar fizikasi ixtisosligi bo'yicha "Issiq iqlim sharoitida n- va p- tip o'tkazuvchanli kristalli kremniy asosidagi samarali quyosh elementlari va fotoissiqlik aylanligichlar ishlansasi" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti qoshidagi Yarimo'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi falsafa doktori ilmiy darajasini beruvchi PhD.30.08.2018. FM/T.01.12 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 13-iyul kuni saat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100057, Toshkent shahri, Yangi Olmazor ko'chasi, 20-uy.
O'zMU qoshidagi YFM ITI majlislar zali.
Tel/faks: (71) 248-79-94, 248-79-92, e-mail: info@ispm.uz

Gulyamova Mavluda Xamitovnaning 13.00.02 — Ta'lim va tarbiya nazariyasiga va metodikasi (ingliz tili) ixtisosligi bo'yicha "Ingliz tilini o'qitishda talabalar kommunikativ kompetensiyasini rivojlanishining integrativ yondashuv" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jahori tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Ped.27.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 12-iyul kuni saat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100138, Toshkent shahri, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21- "A" uy.
Tel/faks: (71) 230-12-92, 230-12-91; e-mail: uzswlu_info@mail.ru

Aliyeva Jamila Rayimjonovnaning 01.04.10 — Yarimo'tkazgichlar fizikasi ixtisosligi bo'yicha "Kremniyda 3d o'tish va I, III-V guruh elementlari atomlarining diffuziya parametrlari" mavzusidagi (fizika-matematika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti qoshidagi Yarimo'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi falsafa doktori ilmiy darajasini beruvchi PhD.30.08.2018.FM/T.01.12 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 13-iyul kuni saat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100057, Toshkent shahri, Yangi Olmazor ko'chasi, 20-uy.
O'zMU qoshidagi YFM ITI majlislar zali.

Tel/faks: (71) 248-79-94, 248-79-92, e-mail: info@ispm.uz

Ortikov Ilxomjon Sobirovichning 02.00.03 — Organik kimyo ixtisosligi bo'yicha "2H, -Okso, -tiokso-5, 6-dimetiltieno[2,3-d] pirimidin-4-onlarning kimyoviy o'zgarishlari" mavzusidagi (kimyo fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.K.01.03 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 15-iyul kuni saat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy.
Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-53-21; e-mail: chem0102@mail.ru

Sattarov Saydmurod Abdusharipovichning 08.00.13 — Menejment ixtisosligi bo'yicha "Iqtisodiyotni modernizatsiyash sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni boshqarish samaradorligini oshirish" mavzusidagi (iqtisodiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSs.27.06.2017.I.16.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 12-iyul kuni saat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100000, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy.
Tel/faks: (71) 239-28-72, 232-01-49; e-mail: tdu@tdiu.uz

Xalq bankining Olmazor filiali 24/7 elektron ofislarini joriy etish uchun qurilish ishlarini amalga oshirish bo'yicha quruvchi tashkilotlar o'rtaida tanlov e'lon qiladi.

1. Tanlov komissiyasi ishchi organi manzili va telefon raqami: Aksiyadorlik tijorat Xalq banki Toshkent shahar filiali. **100024, Toshkent shahri, Shota Rustaveli ko'chasi, 9-uy. Telefon: (71) 202-50-51.**

2. Tanlov o'tkazilish shartlari bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlarni maxsus axborot portaliga www.xarid.uz saytidan (**lot: 9050402**), shuningdek, **dushanba** — juma kunlari saat 9:00 dan 18:00 ga qadar yuqorida ko'rsatilgan manzil va telefonlar orqali olish mumkin.

3. Tijorat takliflari **2019-yil 11-iyul kuni saat 15:00 ga qadar** qabul qilinadi. Tijorat taklifida tanlov o'tkazish shartlarida belgilangan barcha hujjatlar bo'lishi lozim.

AT Xalq banki Toshkent shahar Olmazor filiali.

Toshkent shahri Yashnobod (sobiq Hamza) tumanidagi 227-maktab tomonidan 1990-yilda Sadikova Surayyo Kabilovna nomiga berilgan B №590694 seriyali to'liqsiz o'rta ma'lumot to'g'risidagi GUVOHNOMA yo'qolganligi bois

BEKOR QILINADI.

Agar sizga yiliga besh yuz so'm to'layotgan bo'lsak, demak, arziyisiz, biz uchun qimmatlisiz.

Aka-uka Kulikinlar manufakturasi tasarrufidagi fabrika maktabining muallimi Fyodor Lukich Sisoyev dab-dabal ziyofatiga shaylanayotgan edi. Fabrika ma'muriyati har yili imtiyon tugagandan so'ng ziyofat yushtirish, unda xalq bilim yurtlari noziri, imtiyonda qatnashganlarning barchasi va fabrika ma'muriyati istirok etardi. Ziyofat rasmiy bo'lishiga qaramay, hamisha uzoqroq, quvnoqroq va totiqliq o'tardi; mansab-martabalarini bir chetqa surib, faqat chekkan zahmatlarini eslab, muallimlar to'yug'ina yeb-ichar, jo'r bo'lib kuylashar, bo'g'ilib qolquncha vaysashar, va niyoqat, fabrika qishlog'ini qo'shiq, o'pich, qiyqirqlar shovqiniga to'ldirib allamahalda tarqalishardi. Sisoyev fabrika maktabida ishlayotganidan buyon bunaqa o'tirishlarning o'nuchitida qatnashdi.

Mana endi o'n to'rtinchini ziyofatga chog'lanar ekan, bayramona, ko'rkan ko'rinishga harakat qilaradi. U yangi qora kostyum-shimini cho'tka bilan bir soat tozaladi, yangi urfdagi ko'yakni kiyganidan so'ng, yan shuncha vaqt o'zini oynga soldi; ko'yakning tugmalarini zo'rg'a o'tarkan, bu holatdan vujudida xotining nisbatan shikoyat, tahdid o'pka-ginalarning butun bir toni ko'tarildi. Atrofda girdikapal bo'layotgan mushtipar xotining tinki curidi. O'rxi-qibat o'zi ham holdan toydi. Unga tozalangan poyabzalini oshxonadan olib kelishganda oyog'iga ilishga madori yetmadni. Biroz cho'zilib, suv ichib oldi.

— Rosa kuch-quvvatdan qolib-san-a! — xo'risib dedi xotini. — Shu ziyofatga bormay qo'ya qolsang bo'lamidi.

— Kel, qo'y, maslahating kerak emas! — dedi asabiy muallim gapni cho'kesib.

Uning kayfiyati buzilgan edi, chunki so'nggi imtiyondan juda norizo bo'lib chiqdi. O'zi imtiyonlar a'llo darajada o'tdi, katta bo'lindagi barcha o'g'il bolalar guvohnoma va sovg'a bilan taqdirlardan; fabrikating ham, davlatning ham kattalar erishilgan yutuqlardan qoniqishdi, ammo muallimiga bu yetarli emasdi. U ranjib qoldi, har doim hech bir xatosiz yozadigan o'quvchisi Babkin diktantda ucta xato qildi, Sergeyev bo'lsa, hayajonlanib 17 ni 13 ga ko'paytirildi; yosh, tajribasi yo'q nozir diktant uchun murakkab matn tanlabdi, qo'shni maktab muallimi Lyapunov, ya'ni nozir diktantni o'qib berishga chaqirgan muallim esa o'zini "do'stona" tutmadi: matn o'qishda chaynalib, so'zlarini ravon talaffuz qilmadi.

Xotining ko'magi bilan botin-kasingin ipini bog'lagach, o'zini yana bir martga oynga solgan muallim serko'sha tayoqchani qo'liga oldi-da, ziyofatga jo'ndi. Fabrika direktorining uyiga kirishdash, tantana o'tadijan joyga yetganda, andak ko'ngilsizlik ro'y'deri. Dabburustidan uni yo'tal tutib qoldi.. Yo'tal zo'ridan silkin-ganda boshidan furajski uchib ketdi, qo'lidagi tayoqni tushirib yubordi. Qattiq yo'talni eshitib, bilmal yurtlari noziri va muallimlar direktorning uyidan otlib chiqqanda Sisoyev qissa terba binada o'tirardi.

— Fyodor Lukich, o'zingizmisiz? — dedi hayron qolgan nozir. — Siz... keldingizmi?

— Niyamidi?

— Azizim, uyingizda o'tirsangiz bo'lmasmidi?! Siz, axir, betob-siz-ku...

— Kecha qanday bo'lsam, bugun ham shundayman. Mabodo kelganim yoqmayotgan bo'lsa, qaytib ketishim mumkin.

— Qo'ying-e, nega bunday deysiz, Fyodor Lukich? Shunaqa ham deydim odam! Marhamat qiling! Aslida ziyofat sababchisi biz emas, sizsiz-ku. Aksincha, kelganingizdan g'oyat mammummiz, bir qoshiq qonimdan keching!..

Fabrika direktorining uyida tantanaga tadorik ko'rib bo'lingandi. Katta oshxonada moybo'yoqda ishlangan olmoncha surat ilingan: yorongol va bo'yoq hidi anqigan ikita stol tuzab qo'ylibdi: kattasi — ziyofatga, narigisi gazaklar uchun. Darpardasi tushirilgan derazadan harorati choshog' nuri sizaridi... Xonaning g'ira-shiraliq, darpardalarning shveysartscha ko'rinishi, yorongullar, likopchadagi yupqa kesilgan kolbasa — bularning barcha-barchasi xonadoning hassos xo'jayining — kichkina yumaloq qorinli, ko'zlarini xumor, yoqimi boqvchi, ko'ngli ochiq o'mlonga o'xshab ketardi. Adolf Andreich Bruni (xo'jayimni shun-

— Siz ham tuzuksiz, — deb uning gapini bo'ldi Sisoyev. — Salvol to'g'ri, aniq-tiniq berilishi kerak, siz esa nuqul topishmoq aytasiz. Bu naqasi ketmaydi!

Bir narsa qilib, hamma bor kuchini yig'ib uni tinchlanitrgach, dashturxon chetiga o'tqazishdi. U nima ichishni uzoq tanladi va aftini bu rishtirib, qandaydir yashil aroqdan yarim qadah ho'pladi, keyin bir parcha pirogini oldiga tortib, qunt bilan undan tuxum va piyoz qiymasini ajaridi. Pirog birinchi yutunda nintatir tuyuldi. U avvaliga tuz sepidi, so'ng darrov achchiqilani, nari surib qo'ydi, endi pirog shor bo'lib ketgandi. Ziyofatda Sisoyevni nozir

qandaydir dashmanlariga sha'ma qilishga urindi, qaytarilgan bo'ldi, yo'tal tutdi va qo'lini beo'xshov paxsa qildi. Oxiri charchab ketdi, qora terga botib, sekin, bo'lib-bo'lib so'zlay boshlashdi, ammo o'zi haqidagi ma'ruzasini xulosalashning kiffini keltira olmadi:

— Xullas, Bruni uchun, ya'nı Adolfo Andreich sharafiga ichishni taklif qilaman, mana u yonimizda, oramizda... umuman... va tushunarliridi.

U so'zini tugtagan zahoti go'yo kimdir havoga muzday suv purkab, dimlikni tarqatib yuborgandy baracha yengil nafas oldi. Bu yoqimsiz tuyg'uni, aytidan faqat Bruningina his etmadi. Ehtirosga to'la ko'zlarini

A.CHEXOV

erishgan yutuqlari va maqtovlarga o'rganib qolgan Sisoyev muxlislarning hayratomu shovqinini mensiyyet eshitib o'tirdi.

Maqtovlardan uning o'miga Bruni sarmast bo'ldi. Olmon olqishlar muallimiga emas, o'ziga aytildigida har bir so'ni lib olar, yashnab ketar, qarsak chalar va uyalib qizardardi.

— Ofar! Barakalla! — qichqirdi u. — To'g'ri! Ko'nglimdagini aytdingiz!.. A'lou!

U o'z quvchonchini baham ko'rmoqchi bo'lib muallimming ko'zlariga tikildi. Oxir-oqibat, o'zini tutolmay, o'midan sapchib turdi-da, boshqalarning shovqin-suronini bosib, chiyillagan ovozda qichqirdi:

— Janoblar! Ijozatingiz bilan so'z men! Jim-m! Barcha aytganlarin qaqtaq faqat bir narsani qo'shimcha qilaman: fabrika ma'muriyati O'rxiq Lukichdan qarzdar bo'lib qolmaydi!..

Hamma jimb qoldi. Sisoyev nigojini olmonning pushti yuzlariga qadadi.

— Biz qadrashni bilamiz, so'zida davom etdi Bruni yuziga jiddiy tus berib, ovozini pasaystirib. — Barcha so'zlarinidan so'ng shuni aytishim lozimki... Fyodor Lukich otilasi bekam-u ko'st ta'minlanadi va shu niyatda bir oy avval bankka kaptal qo'yildi.

Sisoyev savol alomatli bilan bir olmonga bir sherkiriliga talmovsir qarab qaradi; nega oilasi ta'minlanadi, aynan o'zi emas? Mana shunda u barchanining yuz-ko'zida, unga tilkilgan ruhsiz, taipingan nigojhorda o'zi sira toqat qilolmaydigan taskin emas, achnish ham emas, balki boshqa nimanidir, qandaydir odamni avlagayuvchi, nozika va ayni paytda, o'takctgan yovuz, dahshatlari qo'shingatqa monand tuyg'uni o'qidi va o'sha lahzada a'zo'yadi badani muziab ketdi, qalbini esa ifodalab bo'limas umidsizlik mahv etdi. Bujmay yuzi oqarib, o'midan sapchib turdi-da, boshini changalladi. Chorak daqiqqa shu alpozda, dahshat iskanjasida qarshisidagi bir nuqtaga tibilki qoldi. Go'yo o'sha, Bruni aytgan, pirovardida turgan ajalmi yaqindan ko'rganday bo'ldi, keyin qaytib joyiga cho'kdi va ho'ngrab yubordi.

— Sekin!.. Sizga nima bo'ldi?.. — degan tashvishli ovozlar eshitildi unga. — Suv! Suv iching!

Biroz o'tgach, muallim tinchlandi, ammo ziyofatdigilarga avvalgi jo'shqinlik qaytmadi. O'tirish g'amgin jumlik bilan o'tgan yilgiga qaraganga anchagini barvaqtugadi.

Sisoyev uyg'iga bora solib hammasidan oldin oynga qaradi.

“U yodga bekorga ho'ngrab yubordim, albatta, — o'yadi u chetlar qoraygan ko'zlariga, osilib qolgan lunjiga tikilib. — Bugun rang-u ro'yim kechagiga qaraganda anche yaxshi. Menda kamqonlik bilan oshqozon yallig'lanishi bor, yo'tal esa oshqozondan...”

Shuning bilan xotirjam tortdi, shoshilmay yechindi va qora kostyum-shimini cho'tka bilan uzoq tozaladi, keyin hafsala bilan joylab, javonni quflab qoldi.

So'ngra bir dasta o'quv daftari yotgan stolga yaqinlashib, Babkinning daftarini ajaratib oldi va bolasining chiroyligi yozuv sheriga mahiliyo bo'lib qoldi.

U o'quvchilarining diktantini ko'rib chiqayotgan o'sha payt qo'shi xonada shifokor o'tirar va muallimning xotining shivirlab, bor-yo'g'i bir haftacha umri qolgan odamni ziyofatga yuborish kerak emasdi, deya tanbeh berardi.

1886

Rus tilida
HUMOYUN tarjimasi.

Muallim

Hikoya

day atashardi) gazaklar stoli yonida kuyimalanar, xuddi o't ushgingday, qadahlarini to'latib quyar, talinkalarga gazak qo'yars, mehmonlarning ko'nglini olishga, xursand qilishga, shu orqali o'zingiz g'oyat mehmonning stigliini ko'rashishiga urinardi. U yelkalarga qoqib qo'yar, ko'zlariga tixtilar, xixilab kular, qo'lini ishqalar, bi so'z bilan aytganda, xuddi muloyim ko'ppakday erkalanardi.

— Fyodor Lukich, o'zingizmisiz! — Sisoyevni ko'rgach dona-dona so'zlab, avray boshladi u. — Xush ko'rdik! Betob bo'lganiningiza qaramay kelibisz!.. Janoblar, ijozatingiz bilan xushnud etaman: Fyodor Lukich keldilar!

Pedagoglar gazaklar stoli atrofida uymalashib, tanovul qilishardi. Sisoyev xo'miray qo'ydi; sheriklarining unga qarab o'tirmay yeb-ichishni boshlab yuborgani yoqinqiramadi. Ularning orasida o'shani, imtiyondan diktant o'qib turgan Lyapunovni ko'z ostiga oldi-da, to'g'ri uning qarshisiga kelib, gap boshladi:

— Bu do'stona emas! Ha-a! Vijdoni odamlar diktantni bunday o'qimaydi!

— Xudo haqqi, haliyam o'sha gapmi! — dedi Lyapunov peshonasi tirishtirib. — Nahotki jomingizga tegmagan bo'lsa!

— Ha, haliyam o'sha! Babkin hech qachon xato qilmagan! Nega shunday o'qiganingizni juda yaxshi bilaman. O'quvchilarning imtiyondan yiqilishini, maktabning menikidan yaxshiroq ko'rinishini istagansiz. Ha, hammasini tushunib turibmani!..

— Namuncha tirmaq ostidan kir qidirasiz? — deb jerkib berdi Lyapunov. — Jin ursin, nega menga yopishib oldingiz?

— Bo'ldi qiling, janoblar, — oraga qo'shildi nozir, aytidan, yig'lagudek bo'lib. — Qo'ying, asabni buzishga arziyidimi shu!.. Uchta xatomni... biorata xatosizmi... axir, hammasi baribir emasmi?

— Yo'q, barbirmas. Babkin hech qachon xato qilmagan!

— Yopishib oldi! — davom etdi Lyapunov asabiy to'ng'illab. — Bebobligini bahona qilib, hammani qabiq olyapti. Eti otigann, men dardmandligingizga qarab o'tirmayman!

— Dardimni o'z holiga qo'yatura! — deb yaqirdi Sisoyev darg'azab bo'lib. — Nima hingizbor? Hammangiz bir gapni chaynayverasiz: dard, dard, dard!.. Hamdardilingizga zormasman! O'zi, meni kasal degan gapni qayerdan oldingiz? To'g'ri, imtiyongacha kasal edim, ammo hozir butunlay soppa-sog'man, faqat biroz madorsizman, xolos.

— Tuzalib ketdingmi? Xudoga shukr, — dedi huquq muallimni Nikolay, jiggarni basubasini shimga qistirmagan olifa yosh ruhoniy. — Xursand bo'lishi kerak, sizlar esa qo'zab otiga minasiz va hokazo.

bilan Brunining o'ttasiga o'tqazishdi. Birinchi taom tortilgandan so'ng eskidan qolgan odatga ko'ra qadaq so'zi aytish boshlandi.

— Tashakkur bildirishni yoqimli burchim deya bilaman, — deya gap boshladi nozir, — oramizda ishtirok eta olmayotgan maktabimiz vasylari Daniil Petrovich va... va... va ...

— Va Ivan Petrovich Bruni!

— Va Ivan Petrovich Kulikinlar uchun, maktabdan mablag'ini aya maganlarini tufayli ularning sog'lig'i uchun ichishni taklif qilaman...

— Men, o'z tonomidan, — dedi Bruni, go'yo yerdan yotgan odamday sapchib turib, — hurmatli xalq bilim yurtlari noziri Pavel Gennadyevich Nadarov salomatligi uchun qadaq so'zi aytish etaman!

— Men chin qalbdan e'tirof etishim kerakki, maktabingiz, haqiqatan, boshqacha, — dedi nozir.

— Yana maqtaqyapti, deb o'yalamang. Umrimda, aqallib bitta bo'lsin, bu naqa maktabni uchratmaganman. Imtiyornlarni kuzatib o'tirarkanman, lol goldim. Mo'jiza-ya, qanday bolalar! Ko'p narsani biladi, dadi javob beradi, buning ustiga, siznikilar qandaydir bo'lakcha, tortishmaydi, samimiy... Ko'rinish turibdi, Fyodor Lukich, sizni ham yaxshi ko'risharkan. Pedagoglik suyak-suyagingizga singib ketgan, muallim bo'lib tug'ilgan bo'lsangiz kerak. Sizda hammasi mujassam: tuga'm iste'dod, ko'pyillik tajriba, kasbga mchr... Duda hayratlanarli, betob bo'lganiningiza qaramay, naqadar g'ayrat-shijoatilisiz, ishingizning ustasizsi... Bu, bilasizmi, vazminlik, ishchon! Hali bilim yurti kengashida kimdir haq gap aytdi, siz o'z kashbginzining shoirisiz... Ha, aynan, shoir!

— Hamma joyda, — dedi u, — muallimlar 200 so'mdan 300 so'mgacha maosh olibishadi, men esa 500 so'm olaman va buning ustiga, men yashayotgan xonadon fabrika hisobidan yangitdan ta'mirlandi, hatto qayta jihazdir berildi. Bu yil esa hamma devorlariga yangi gulqog'oz yopishirildi...

Keyin muallim davlat maktablariga qaraganda uning o'quvchilariga yozuv qurollari xohlagancha berilayotganini aytilib gapni cho'zdi. Bularning barchasi uchun uningcha, maktab xorijda yashayotgan va o'zingizning maktabi borligini bazo'r eslайдиганни олди. Sisoyevning so'zlarini ham, badfe'lili ham, yoxqimsiz basharasi ham, hamma-hammasi unutildi. Barcha gapidri, "janobi oliy" nozirday salobatli bo'lgagan, kamsuqum, tortinchoqlar ham, qayta tayinlangan muallimlar, qashshoq, hatto el nazaridan chetda qolgan yoshlar hamapirdi. Sisoyevning o'z davrasida ajoyib shaxs ekani kunday ravshan bo'ldi. O'n to'rt yillardan buyon xizmatda

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash — dolzarb masala

Poytaxtimizda O'zbekiston mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti Toshkent shahar kengashi tomonidan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 12-dekabrdagi "Yoshlarni vatanparvarlik ruhida va jismoniy tarbiyalash hamda chaqiriluvchilarni harbiy-teknik mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlash tartibini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ijrosi doirasida "Biz vatanparvarlarmiz!" shiori ostida festival bo'lib o'tdi.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni sportning texnik va amaliy turlariga jalb etish maqsadida tashkil etilgan festival Yoshlar markazi hududida "Raketamodel", "Aviamodel", "Pnevmatik multiqlar", "Triatlon", "Motokross", "Baqgi", "Karting" kabi sportning texnik va amaliy turlari ko'rgazmasi bilan boshlandi. Mazkur ko'rgazmani qiziqish bilan kuzatgan ishtirokchilar raketamodel uchirilishining ham guvohi bo'ldi.


Shuningdek, Olmazor tumaniidagi 233-umumta'lim maktabining yo'l harakati maydonchasiida "Yo'l qoidasi — umr foydasi!" mavzusida tadbir bo'lib o'tdi. Unda Toshkent shahar "Vatanparvar" tashkiloti tasarrufidagi Olmazor tuman O'quv sport texnika klubini xodimlari Toshkent shahar IIB YXHB xodimlari bilan hamkorlikda maktab qoshida tashkil etilgan yozgi bolalar dam olish oromgohi tarbiyalanuvchilariga yo'llarda

harakatlanish qoidalari bo'yicha tushuntirishlar berishdi.

Festival doirasida "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisining o'rinnbosari M.Umarovning "Yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tarbiysi (nazariy va amaliy asosları)" nomli qo'llanmasi taqdirmoti o'tkazildi. Ishtirokchilar Toshkent shahar Yoshlar markazida tashkil etilgan "Vatanparvarlik klubi" faoliyatini bilan ham tanishdi.

Tadbir so'ngida ishtirokchilarga "Vatanparvar" tashkiloti futbol kiyimlari sovg'a qilindi.

G.BOBODEVA,
O'ZA muxbir



Sport ta'limi muassasalari pedagoglari attestatsiyadan qanday o'tkaziladi?

Pedagog xodimlar hamda rahbar kadrlar bilimini attestatsiyadan o'tkazish ulaming kasbiy malakasi va faoliyatini yaxlit tarzda baholash imkonini beradi. Attestatsiya natijasiga qarab pedagog va rahbar xodimlarga kasbiy tayyorgarlik darajasi bilan bog'liq holda toifalar berish imkoniyati ta'minlanadi.

Attestatsiya — mutaxassislearning ishga layoqati, malakasi, bilim darajasi va xulq-atvorini aniqlash va shu asosda ishga tayinlash yoki unvon berish uchun o'tkaziladigan sinov.

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydag'i "Maktabgacha, umumiyo'rti, o'rta maxsus, kasb-hunar va maktabdan tashqari davlat ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori qabul qilindi. Mazkur qaror bilan tasdiqlangan Nizom maktabgacha, umumiyo'rti, o'rta maxsus, kasb-hunar va maktabdan tashqari davlat ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini belgilaydi.

Vazirlar Mahkamasining ushu qarori va unga muvoqiq tasdiqlangan Nizom biz, sport ta'limi muassasalari pedagoglari uchun muhim dasturilamal bo'ldi.

Nizomda sport turlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan davlat maktab-internatlari; ixtisoslashtirilgan olimpiya zaxiralari maktab-internatlari, bolalar-o'smirlar sport maktablari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar jismoniy tarbiya va sport boshqarmalarida, birinchi malaka toifasiga talabgor pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar jismoniy tarbiya va sport boshqarmalarida, birinchi malaka toifasiga

tashkil etish va attestatsiya komissiyalini tuzish ham belgilab qo'yilgan.

Vazirlar Mahkamasini huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi bilan birligida har yili 20-yanvarga qadar pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish jadvalini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi. Sport ta'limi muassasalari rahbarlari attestatsiya muddatini bir oy oldin e'lon qiladi hamda pedagoglarni attestatsiyadan o'tkazish tartibi bilan tanishitadi.

Sport turlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan davlat maktab-internatlari, ixtisoslashtirilgan olimpiya zaxiralari maktab-internatlari, bolalar-o'smirlar sport maktablari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish bo'yicha attestatsiya komissiyalari tegishlilikiga qarab ketma-ketlik tartibida tuziladi. Ya'ni, oliy malaka toifasiga talabgor pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar jismoniy tarbiya va sport boshqarmalarida, birinchi malaka toifasiga

talabgorlarni attestatsiyadan o'tkazish uchun tuman (shahar) jismoniy tarbiya va sport bo'limlarida, ikkinchi malaka toifasiga talabgor pedagoglar uchun tegishli ta'lim muassasalarida attestatsiya komissiyalari tuziladi va attestatsiyadan o'tkaziladi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, sport turlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan davlat maktab-internatlari, ixtisoslashtirilgan olimpiya zaxiralari maktab-internatlari, bolalar-o'smirlar sport maktablarning pedagog kadrlarini chiqurlashtirilgan va kasbiy ta'lim fanlari bo'yicha attestatsiyadan o'tadir.

Nizomda majburiylik, davriylik, oshkoraliq hamda xolislik attestatsiyaning asosiy prinsiplari hisoblanishi, pedagog kadrlar har besh yilda bir marta attestatsiyadan o'tkazilishi, ishga yangi qabul qilingan pedagog bir yildan keyin, ta'lim muassasasini bitirib birinchi bor ishga kirgan yosh pedagog kasbiy faoliyatiga uch yil to'lgandan so'ng attestatsiyaga jalb etilishi, malaka toifalari ta'lim muassasalarining bir turidan boshqasiga ishga o'tganda saqlanishi kabi jihatlarga ham alohida e'tibor qaratilgan.

Zarif BEGIMQULOV,
Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha
mutaxassislarini ilmiy-metodik
ta'minlash, qayta tayyorlash va
malakasini oshirish markazi Samarqand
filiali "Ijtimoiy fanlar" kafedrasini mudiri

"Istiqlol"da yayrayotgan bolalar

Olmaliq kon-metallurgiya kombinatiga qarashli "Istiqlol" bolalar sog'lomlashtirish oromgohi Zominning Usmonlisoy qishlog'ida joylashgan.

Oromgoh hovlisiga qadam qo'yishingiz bilan archalardan taralayotgan muattar hid dilni yaratadi. Ariqlarda shildirab oqayotgan suv, rang-barang gullar, yam-yashil maysa oromgohga o'zgache bir joziba baxsh etgan. Mashg'ulotda qatnashayotgan o'quvchilarning sho'x-shodon ovozi olis-olislarga eshitiladi. Ayniqsa, oromgohdagi cho'milish havzasini hamisha bolalar bilan gayyum. O'tkazilayotgan suzish musobaqalari o'g'il-qizlarga zavq-shavq bag'ishlamoqda.

Musobaqalarni o'tkazishdan oldin suzish xavfsizligi qoidalari bolalarga yana bir bor eslatiladi, — deydi jismoniy tarbiya to'garagi rahbar Farhod Ro'ziyev. — Sportning bu turi bolalarning aqiliy va jismoniy rivojanishiga ko'maklashadi. Suzish jarayonida insonsoing deyarli butun organizmi harakatda bo'ladi. Mashg'ul chog'ida hamshira bolalarning salomatligini nazorat qilib turadi.

Oromgohda "Sehri notalar", "Jismoniy chiniqish", "Kompyuter savodxonligi", "Yosh kitobxon", "Yosh suxandon", "Yosh tabiatshunoslar" to'garaklari faoliyati yo'iga qo'yilgan. To'garak rahbarlari o'quvchilar orasidan turli yo'naliishdagi iqtidorli va iste'dodli yoshlarni tanlab, ularni alohida rag'batlantirmoqda. O'quvchi Husan Rustamov suzish bo'yicha mahoratinai namoyish etgan bo'lsa, Ahror Abdullaevi stol tennisida tengdoshlaridan ustunligini ko'rsatdi.

Kitob mutolaasi — bolalarning sevimli mashg'uloti. Oromgoh kutubxonasida bolalar yoshiga mos kitob ko'p. To'garakda "Yosh kitobxon", "Eng faol kitobxon", "Men sevgan asar" mavzularida bahs-munozaralar uyushtirilib, she'rxonlik, g'azalxonlik kechalar o'tkazilyapti. Omina Aliyeva dam oluvchilar o'tasida eng ko'p kitob o'qigan o'quvchi sifatida alohida rag'batga sazovor bo'ldi.

Dam olish maskanida o'tkazilayotgan barcha tadbirlar 5 ta muhim tashabbusni hayotga tatbiq etishga yo'naltirilgan, — deydi oromgoh boshlig'i Dilorom Usanova. — Yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqar turlariga qiziqishini oshirish, iste'dodini yuzaga chiqarish ko'maklashuvchi tadbirlar rejasini mavjud. Unga ko'ra, dam oluvchilarini jismoniy chiniqitirish, ularning sport sohasidagi qobiliyatini namoyon etishiga ko'maklashyapmiz. Kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanish yo'lyo'riqlari o'rgatilmoqda.

O'quvchilar yozgi ta'tilni maroqli o'tkazish bilan birga maktabda olgan bilimlarni yanada mustahkamlamoqda. O'zlarini qiziqan sohalar bo'yicha kasbiy ko'nikmalarini oshirmoqda. Oromgohda har bosqichda 200 nafar, mavsum davomida kombinat ishchixizmatchilarining 800 nafar farzandi dam oladi. "Yoz — 2019" davomida Jizzax viloyatida mavjud 10 ta sog'lomlashtirish oromgohi va maktablar qoshidagi 86 ta kunduzgi bolalar sog'lomlashtirish maydonchasi o'n ming nafarga yaqin o'g'il-qiz dam olishi rejalashtirilgan.

Abdusattor SODIQOV,
"Ma'rifat" muxbiri

Yil bo'yи gavjum maskan

O'quvchiligidiz so'nggi qo'ng'iroydan so'ng maktabni tark etardik va shu bilan o'qish boshlanganda kelardik. Ta'til o'rtalariga borib maktabni, sinfdoshlar va ustozlarni sog'inardik. Maktabimiz hovlisi ta'tilda huvillab qolardi. Hozir esa yil bo'yи gavjum. Ta'tilda oromgoh, o'qish mahali dars o'tiluvchi dargoh! Ajoyib-a?! Shunday katta bino uch oy bo'sh turgandan o'quvchilar uchun oromgoh vazifasini o'tagani yaxshi-ku! Farzandlarining bo'sh vaqtini mazmunli o'tishini istagan ota-onalar uchun ham ayni muddao.



Mirobod tumanidagi 294-maktabda "Orom" nomli sog'lomlashirish maydonchasi tashkil etildi. Mazkur maydonchada o'quvchilar sport bilan birlgilikda rassomlik, tikish-bichish, to'qish, kompyuter savodxonligini o'rganishmoqda. Mashg'ulotlar interfaol, noodatiy o'yinlar tarzida tashkil etilganligi bois o'quvchilarning o'zi to'garaklarga qiziqish bildirishmoqda.

To'garaklar Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashhabbus bo'yicha tashkil etilgan bo'lib, alohida

reja asosida faoliyat yuritadi.

— Maydonchamizning o'zigaxosligi shundaki, unda faqat iqtidorli, muayyan yo'nalishga layoqoti bor o'quvchilar emas, balki tarbiysi og'ir, sinfdoshlari bilan chiqisha olmaydigan bolalarni ham qamrab olishga harakat qilamiz, — deydi maktab rahbari Muqaddas Egamberdiyeva. — Bunday o'quvchilar



Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan. Indeks: 149, 150. V-3559. Tiraji 12017. Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan, qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:
qabulxona — (71) 233-50-55;
kotibiyat — (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo'limi —
(71) 233-42-92 (faks), (71) 236-54-17.



mashg'ulotlarni yaxshi o'zlashtirib, maqtov eshitigan sari yaxshi tomonga o'zgarib borishi tajribalarda sinalgan. Mashg'ulotlar davomida biz ularni o'z qobiliyatini to'g'ri yo'naltirishga o'rgatsak, maqsadimizga yetgan bo'lamiz.

O'quvchilarning yoz faslida miriqib

dam olishlari, ham jismonan, ham ma'nан sog'lom bo'lishlari uchun maktab jamoasi jonbozlik bilan mehnat qilmoqda.

Oltingul QALLIBEKOVA,
oramgoh rahbari

B.RIZOQULOV
olgan suratlari.



Ma'rifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi,
O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,
O'zbekiston Ta'lim, fan va madaniyat xodimlari
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

"Ma'rifat" dan
materiallarni ko'chirib
bosish tahririyat
rusxati bilan amalga
oshlirishi shart.

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqriz
qillirmaydi va mual-
lifga qaytarilmaydi.

MANZILIMIZ:
100083, Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.
Navbatchi muharrir: Xayrullo Abdurahmonov.
Navbatchi: Faxriddin Rahimov.

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

O'ZA yakuni — 22.50 Topshirildi — 00.00

1 2 3 4 5 6



ISSN 2010-6416